

VATANDIN YAXSHI YOR BO'LMAS!

VATANDOSH

Madaniy-ma'rifiy gazeta. 2011-yil, 17-mart. 1-son.

NAVRO'ZI OLAM MUBORAK!



© D.Tojraliyev

2-3-sahifalar

YURAKDAGI BUXORO



Buxoro to'ntari-shi, zo'ravonlik, qizil qo'shinning bosqini, amir Sayyid Olimxonning shaxsi, xazinasi, uning Moskovda bir umr tutqunlikda ushlangan uch o'g'li taqdiri...

Dunyoda o'z tarixing-ni bilmaslikdan og'irroq jazo bormi? Buning ustiga avlodu ajdodlaring, yaqin kechmish senga dushman qiyofasida tasvirlansa, o'rgatilsa...

(7-sahifa)

DOIMIY MUDDATGA OVIK OLISH MUMKINMI?



Doimiy yashash uchun chet elga ketayotgan shaxslarga ichki ishlar organlari ularning pasportidagi vizalar uchun nazarda tutilgan betga

doimiy yashash uchun chet elga borishga ruxsat berish yozuvi stikerini amal qilish muddatini ko'rsatmasdan yopishtiradilar.

(11-sahifa)

VAMBERI OLIMMI, JOSUS?



Vengriyalik Armin Vamberining darvesh qiyofasida Rashid afandi, Rashid hoji nomlari bilan bizning yurtimiz bo'ylab qilgan safariga 125 yil to'ldi.

1863-yilning 28-mart kuni Makkadan qaytayotganlar bilan birga kechqurun Rashid afandi darvesh qiyofasida hali bizga noma'lum ming xil xayollar, ming xil rejalar bilan yurtimiz tomon kela boshlaydi.

(14-15-sahifalar)

NYU JERSIDAGI
UCHRASHUVLAR

5-sahifa

QUTLOVLAR

6-sahifa

MENI OLIB KETING
O'Z DIYORIMG'A

8-sahifa

MUROD QACHON
MURODIGA YETADI

9-sahifa

TURKIY TILIM SEN
AZALDAN...

10-sahifa

AMERIKADA
O'QIMOQCHIMISIZ?

13-sahifa

ABDULHAMID
CHO'L PON

16-sahifa

HALOLLIK

17-sahifa

QIZIQARLI
TOPISHMOQLAR

19-sahifa

AFANDI
LATIFALARI

20-sahifa

JAHON E'TIROF ETGAN BAYRAM



Bahor yana eshik qoqmoqda. Yasharish va yangilanish fasli kurrai zamin bo'ylab odim tashlab, dillarni xushnud etish arafasida. Navro'zi olamga peshvoz chiqaylik!

Ko'hna Sharqning bir qator mamlakatlarida bahorning birinchi kunini katta bayram sifatida nishonlash ko'p ming yillik tarixga ega. Tabiat qish uyqusidan uyg'onib, quyosh taftining ko'tarilganligidan darak beruvchi hamda dehqonchilik ishlarining boshlanish ramzi sanalgan Navro'z Yangi yilning ibtidosi sifatida ko'pgina xalqlarning bayramiga aylangan.

Navro'z tantanalari Markaziy Osiyo mamlakatlaridan tashqari Afg'oniston, Eron, Ozarboynon, Turkiya, Albaniya, Makedoniya, Tatariston, Boshqirdiston va boshqa o'lkalarda nishonlanadi.

Hozirga kelib, Navro'z umumjahon bayrami sifatida tan olindi. 2009-yilda YUNESKO tomonidan Navro'z insoniyatning nomoddiy madaniyat merosi ro'yxatiga kiritildi. 2010-yilning 10-fevralida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 64-sessiyasi 21-martni Xalqaro Navro'z kuni sifatida e'tirof etilishi haqida qaror chiqardi. Ushbu qarorda Navro'z nishonlanadigan BMTga a'zo davlatlarning ushbu bayram bilan bog'liq an'analari saqlab qolish va rivojlantirish bo'yicha amalga oshirayotgan harakatlari ma'qullanishi uqtirilgan. Qarorda, shuningdek, barcha mamlakatlarda Navro'zni qayd etish, bayram haqida aholi xabardorligini oshirish tavsiya etilgan. BMTning barcha muassasalari, jamg'armalari, dasturlari, birinchi navbatda, YUNESKOga Navro'z nishonlanadigan mamlakatlarda o'tkaziladigan tadbirlarda ishtirok etish tavsiya etilgan.

Demak, Navro'z rasman keng xalqaro maydonga chiqdi. Ota-bobolarimiz bayramining jahoniy e'tirofi zamirida ulkan mazmun mujassam. Aynan Navro'z uzoq o'tmish udum va an'alarini shu kungacha saqlab keleyotgan bayramdir. Qadim zamonlardan Navro'zning qanday kelishi, u qanday kutib olinib, qayd etilishiga yilning qanday bo'lishini ko'rsatuvchi nishona sifatida qaralgan.

Navro'z – tinchlik, totuvlik, mehr va oqibat timsoli. Bu kuni barcha gina-advatlarga chek qo'yilgan, urush-janjallar to'xtatilgan. Odamlar bir-birlarining holidan xabar olishgan, nogironlar, beva-bechoralarga yordam ko'rsatilgan. Uy va xonadonlar tozaligi, sarishta-saranjomligiga alohida e'tibor qaratilgan. Faqatgina orasta va janjallardan xoli uyga farishtalar to'kin-sochinlik olib kelishiga xalqimiz qattiq ishongan. Navro'z insonparvarlik yaqqol namoyon bo'lgan, odamlarni ruhan birlashtirish kuchiga ega bayram.

AQShda Navro'z rasman nishonlanadigan mamlakatlardan kelgan turli xalq vakillari o'z udumlariga sodiq qolib, 21-martni Yangi yilning kirib kelishi sifatida bayram qilishadi. O'zbekistonliklarning ham ushbu yurtda Navro'zni keng qayd etishlari odat tusiga kirgan. AQShning har xil shtatlarida yashayotgan yurtdoshlarimiz turli tadbirlar

o'tkazib, ularga boshqa millat vakillarini taklif etishadi. Shu kuni sumalak, halim, ko'k somsa va boshqa bahoriy taomlar tayyorlanadi.

O'zbekistonliklarning katta guruhi istiqomat qilayotgan Nyu Yorkda Navro'z alohida bir shukuh bilan nishonlanadi. Barcha oilalarda bayram dasturxonini yoziladi, tanish-bilishlar bir-birlarinikiga mehmonga borishadi. Qator xonadonlar birlashib, katta qozonlarda sumalak tayyorlashadi va qo'ni-qo'shnilariga tarqatishadi.

Nyu Yorkda har yili yuzlab yurtdoshlarimiz ishtirokida teatrlashtirilgan dasturlar ham tashkil etilmoqda. Masalan, o'tgan yili "Muruvvat" markazi va shaxsan uning rahbari Tamara Nazarova tashabbusi bilan katta bayram tadbiri o'tkazilgan edi. Unga boshqa millat vakillari, bir qator milliy-madaniy markaz namoyandalari taklif etilgan edi. Tamara opaning uqtirishicha, o'sha kuni to'kin-sochin dasturxon atrofida yig'ilganlar Navro'zga umuminsoniy qadriyat sifatida baho berib, uning ajoyib xislatlarini mehr bilan tilga olishgan. Jumladan, Buxoro yahudiylari jamoasi vakillari O'zbekistonda yashagan paytlaridayoq bu bayramga mehr qo'yishganligini, Amerika zaminiga kelib ham Navro'zni qayd etishda faollik ko'rsatishayotganliklarini uqtirishdi.

Bu yil ham Navro'zni keng nishonlashga hozirlik ko'rilmogda. Bu galgi tantanalarni tashkil etishda yurtdoshimiz Feruza Murodova jonbozlik ko'rsatmoqda. Bayram tadbiri "Millenium" teatrlarining restoranida o'tkaziladi. Unda 500 kishi qatnashishi kutilmoqda. "Tadbirda vatandoshlarimizdan tashqari Nyu Yorkdagi turli jamoa vakillari taklif etilgan, - deydi F. Murodova, - shuningdek, biz O'zbekistonning Nyu Yorkdagi Bosh konsulining ishtirokini kutmoqdamiz".

Suhbatdoshimning qayd etishicha, yig'ilganlarga teatrlashgan sahnalarni yuqori saviyada namoyish etish uchun bir oydan beri tayyorgarlik ishlari davom etmoqda. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Mavluda Oynaqulova yetakchiligidagi folklor ansambli alohida g'ayrat bilat mashq qilmoqda. O'sha kuni sahnaga chiqishga hozirlik ko'rayotgan aktorlar Siddiq Sanayev, Sodiqlik Mamajonov, yosh, umidli xonanda Nargiz va boshqalar to'planganlarga zavq ulashish niyatidalar. Sobiqlik yurtdoshlarini tabriklash uchun elimiz ardoqlagan xonadalar Muhabbat Shamayeva, Izro Malakov va boshqalar ham bayramda hozir bo'lishadi.

Bu yilgi Navro'z Amerikada yana o'zgacha shukuh bilan nishonlanishiga aminmiz. Bayram bu yerda turli ellardan kelib yashayotgan millat vakillarining bir-birlarini yaxshiroq tushunishlariga, yaqinlashishlariga yordam ko'rsatishi turgan gap. Qadaming qutlug' kelsin, Navro'zim!

*Har tuning qadr o'libon,
Har kuning o'lsin Navro'z!*

Toshpo'lat RAHMATULLAYEV.

Vatandin yaxshi yor bo'lmas!
VATANDOSH

Vol.1. Thursday,
March 17, 2011

Publisher:
Farhod Sulton

Executive Editor:
Davronbek Tojialiye

Deputy Editor:
Alisher Aymatli

Deputy Editor:
Toshpolat Rahmatullayev

News Editor:
Behzod Mamadiyev

Managing Editors:
**Abdulla Kwaja
Lutfulla Tore
Tamara Nazarova**

Advertising Manager:
Sodiqlik Fayzulla

Web Developer:
Shukhrat Pardayev

**Editorial and Executive
office:**

2715 Coney Island Ave.
Brooklyn, NY. 11235

Phone: 646.397.0325

Web: www.vatandosh.com

Email:

info@vatandosh.com

All material in this newspaper has been copyrighted and is the exclusive property of Vatandosh Inc and cannot be reproduced without the due consent of the publisher.

The views and opinions expressed by our columnists do not necessarily reflect the editor's point of view.

We are not responsible for contents of advertisements and products and establishments advertised in Vatandosh.

Price: \$0.25
Circulation: 5000

Aziz vatandoshlar!

**"Vatandosh"
gazetasi bilan
hamkorlikda
ishlayman, o'z
mahsulot va
xizmatlarimni
ushbu nashrda
targ'ib qilaman,
bu yangi nashr-
ning oyoqqa turib
olishiga homiylik
ko'rsataman,
deganlarga hech
qanday moneligi-
miz yo'q, eshigimiz
Siz azizlar uchun
hamisha ochiq!**

NAVBAHOR MUBORAK, AZIZ VATANDOSH!



NAVRO'Z BAYRAMI

... Navro'z eski Quyosh kalendari hisobida Farvardin oyining boshlanishiga (hozirgi 22-martga) to'g'ri keladi. Bu kun "Kichik navro'z" deb atalgan va shu kundan boshlab tabiatdagi hamma narsa Hamalga kiradi, deb hisoblangan.

... Qadimdan xalqda bayramni o'tkazishning o'ziga xos tartib qoidalari bo'lgan. Hovli-joylarni tozalash, ko'katlar va gullar ekish, ota-ona, yoru do'stlarni yo'qlash, marhumlarning qabrini ziyorat qilish kabi odatlar Navro'z bayramining tarkibiy qismiga kirgan.

Ma'lumki, o'rta asrlarda O'zbekiston hududining turli joylarida Navro'z har xil tarzda uyushtirilgan. U 3 kundan to 15 kungacha nishonlangan. Masalan, Xorazmda Navro'zni nishonlashdan oldin maxsus yig'inlar o'tkazilib, unda bayram raisi, korfarmoni (hozirgi til bilan aytganda - rejissori) tayinlangan, tantanalar jadvalida tomoshalar, sayillar, musobaqalar o'tkazish tartiblari haqida so'z borgan.

Navro'z, odatda, bozorga yaqin joylarda, shahar chekkalaridagi sayrgohlarda uyushtirilgan. Bayramning birinchi kuni quyidagicha bo'lgan. Ertalab dorbozlar va polvonlarning chiqishlari, kun o'rtasida musiqachilar, hofizlar va boshqa san'atkorlarning ijrolari, kechki payt esa sayillar, xalq o'yinlari, bazmlar uyushtirilgan.

Navro'z bayrami tarixiga murojaat qilar ekanmiz, qiziqarli o'tadigan xalq tomoshalariga to'xtash joiz. Masxaraboz va qiziqchilar tomonidan ijro etiladigan o'zbek milliy o'yinlari orasida minglab kishilarga mo'ljallangan maydonlarda o'tkaziladigan katta tomoshalar bo'lgan. Bunday tomoshalar Farg'onada — "Katta masxarabozlik", Buxoroda — "Chavqi", Xorazmda — "Xatarli o'yin" nomi bilan yuritilgan.

Xorazmda bo'lib o'tadigan "Xatarli o'yin" tomoshasi muayyan bir mavzu va aniq mazmunga ega bo'lib, u bir necha kun (3 va undan ko'p) davom etadi. Mazkur tomosha bir necha qism va epizodlardan tashkil topgan. Ana shu qism va epizodlar ertalab, tush paytida, kechqurun namoyish qilingan (Qodirov M. O'zbek teatri an'analari. T., 30—130- betlar).

Har xil musobaqalar: kurash va ko'pkari (uloq) bayramning ko'rki bo'lgan. Shuningdek Navro'zda bedana, xo'roz, qo'chqor urishtirishlar ham o'tkazilgan.

Navro'z kunlari katta bozorlarda savdo-sotiq tashkil qilingan va eng shirin taomlar tayyorlangan. Odatdagidek palov, sho'rva, kabob kabi ovqatlardan tashqari do'lma, yalpiz, ko'k piyoz va har xil ko'katlar solingan taomlar pishirilgan. Navro'z taomlari orasida sumalak alohida o'rin tutadi. Chunki sumalakni tayyorlash sayil

sifatida shakllanib, bahor bayramining muhim tarkibiy qismlaridan biriga aylanib ketgan.

GUL SAYILLARI

Gul — bu tabiatning eng go'zal mo'jizasi. U hayotning ko'rki, shodlik manbai. Gul bilan uchrashish bu go'zallik bilan uchrashish demakdir. Go'zallik bilan uchrashish esa — xursandchilik, baxtiyorlikdir.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, dunyodagi barcha xalqlarda ham tabiatning eng go'zal in'omi gul — go'zallik, do'stlik, muhabbat ramzini bildiradi. Gulni ko'pgina xalqlar "go'zallik malikasi" deyishadi. Insoniyat bayramlarining hech biri gulsiz o'tmaydi. Biroq tabiat mo'jizasi bo'lmish gulga bag'ishlangan maxsus bayramlar soni ham oz emas. Bu urf-odat deyarli barcha xalqlarda bor.

Jumladan, go'zallikni nozik his qiladigan o'zbek xalqida ham gulga bag'ishlangan an'analar, sayillar mavjud. Qadimdan jumhuriyatimizning turli hududlarida gul sayillarini — "Lola sayli", "Sumbula sayli", "Qizil gul sayli" kabi nomlar bilan nishonlab keladilar.



Qizil gul sayli. Bu asosan mart oylarining oxirlarida Xorazm va Buxoro viloyatlarida o'ziga xos qiziqarli shakllarda uyushtiriladi. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, bu tantana taxminan bir haftadan bir oygacha davom etib, uning qatnashchilari bir joydan ikkinchi joyga ko'chib sayil qilib yurishgan. Sayil o'tkazilayotgan qishloqlar va sayilgohlarda odamlar ko'tarinki kayfiyatda bo'lib, u yerda kuy va qo'shiqlar yangraydi, raqsga tushishadi. Keng maydonlarda masxarabozlar, dorbozlar tomosha ko'rsatishadi, ishqibozlar xo'roz, qo'chqor, tuyalar urishtirishadi, uloq o'yinlari tashkil qilishadi...

...Yigitlar o'zlariga yoqqan qizlarga olma, anorlar otishi sayilning o'ziga xos o'yinlaridan biri sifatida dilni yayratgan. Sayil davomida yosh yigitlar o'zlarining tanlagan muhabbatlariga yosh bolalar orqali har xil shirinliklar, holva, mayiz yuborishgan. O'z navbatida qizlar ham ularni manzur ko'rsa, "javob shirinliklarini" yo'llashgan.

Hozirgi kunda qizil gul sayli ma'lum ma'noda zamonaviylashib, mehnatkash xalqning dalalarga chiqib mazmunli dam olishi va ma'naviy hordiq chiqarish shakliga aylangan.

Sumbula sayli. Bu bayram ham bahorda tog' yon bag'irlarida turli gullar, jumladan sumbullar yashnagan vaqtda o'tkaziladi. Tabiat go'zalliklarining birlashgan joyi: bir tomoni tog', ikkinchi tomoni suv (ko'l, daryo, soy), uchinchi

tomoni o'rmondan iborat sayilgohlar dam olish, tabiat chiroyidan bahramand bo'lish uchun qulay hisoblanadi. Masalan, Chust tumanidagi Toshqo'rg'on ana shunday tabiat go'zalliklari tutashgan joy. Baland tog'lar, oppoq qorlardan hosil bo'lgan G'ova soyi va uning atrofidagi yovvoyi mevali daraxtlar, turli qushlar va hayvonlar yashaydigan o'rmonzorlar sayil qilish uchun eng qulay joydir.

Qadimdan o'tkazilib kelinayotgan sumbula sayli hozirgi kunda zamonaviy tarzda may oylarida o'tkazilmoqda. Oldindan belgilangan sayilgohga avtobuslar qatnaydi. Savdo yarmarkalari uyushtiriladi, milliy taomlar tayyorlanadi. Xoahganlar toqqa chiqishi, go'zallik olamiga sayohat qilishi, so'lim joylarda davra qurib dam olishi, san'at shaydolari badiiy havaskorlik jamoalari, masxarabozlarning chiqishlarini tomosha qilishlari, sport shinavandalari esa musobaqalarda qatnashishlari mumkin.

Sumbula sayli jumhuriyatimizning ba'zi tog'li tumanlarida, Surxondaryo viloyatining Denov tumani tog' yonbag'irlarida turli gullar ochilgan bir paytda an'anaviy yo'l bilan uyushtirib kelinmoqda.

Lola sayli. Bu qir-adirlarda lola qiyg'os ochilgan paytlarda shahar va qishloq ahli dalalar va bog'larga chiqib nishonlaydigan bayramdir. Lola sayli gul sayillari orasida eng keng tarqalganidir.

Etnograflarning ma'lumotlariga qaraganda lola sayli bayramini xalq tomonidan saylangan «lolachilar» boshqarganlar. Bu o'ziga xos marosim maxsus aytiladigan qo'shiqlar, tomoshalar, o'yinlarga boy bo'lib, butun aholini sayilgoh tomon yo'llashdan boshlangan. Xalqdan meros bo'lib kelayotgan an'anaviy gul sayillariga munosabat hozirgi kunda yangicha mazmun bilan boydi.

Lola sayli aprel oyining yarmida O'zbekistonning ko'pgina joylari, jumladan, Toshkent viloyatining Bo'stonliq, Parkent, Keles tumanlarida, shuningdek, Farg'ona vodiysi, Samarqand viloyatining tog'li tumanlarida shanba va yakshanba kunlari uyushtirilmoqda. Sayilgohlarga jamoa bo'lib chiqqan kishilar o'yin-kulgi, ashula-raqslar uyushtirib, lazzatli taomlar tayyorlab, yaxshi dam olishadi. Bunday bayramlarning asosiy vazifasi aholini mazmunli hordiq chiqarish, tabiat go'zalligidan bahramand bo'lib, uni sevish va qadrlashga o'rgatishdir.

A.Madrahimov va I.Xuvaytovning "Bahor bayramlari" risolasidan olindi.



LOTIN YOZUVIGA ASOSLANGAN O'ZBEK ALIFBOSI

| Lotincha harf | O'qili-shi | Misoli | Turkcha qiyosi | Misoli |
|---------------|------------|--------|----------------|--------|
| A a | a | adab | A a | adab |
| B b | be | bo'ri | B b | böri |
| D d | de | dars | D d | dars |
| E e | e | elak | E e | elak |
| F f | ef | fano | F f | fano |
| G g | ge | gala | G g | gala |
| H h | he | havo | H h | havo |
| I i | i | izoh | I i | izoh |
| J j | je | jo'ja | C c | cöca |
| K k | ke | ko'cha | K k | köça |
| L l | el | lola | L l | lola |
| M m | em | mato | M m | mato |
| N n | en | navo | N n | navo |
| O o | o | olam | O o | olam |
| P p | pe | pona | P p | pona |
| Q q | qe | qadr | K k | kadr |
| R r | er | rasm | R r | rasm |
| S s | es | sado | S s | sado |
| T t | te | to'rt | T t | tört |
| U u | u | ulus | U u | ulus |
| V v | ve | vafo | V v | vafo |
| X x | xe | xalq | H h | halk |
| Y y | ye | yetti | Y y | yetti |
| Z z | ze | zarra | Z z | zarra |
| O' o' | o' | o'qish | Ö ö | öqış |
| G' g' | g'e | g'aniy | Ğ ğ | ğaniy |
| Sh ch | she | sholi | Ş ş | şoli |
| Ch sh | che | chori | Ç ç | çori |
| Ng ng | nge | rang | Ng ng | rang |

Abdulloh Xo'ja: «VATAN MUSTAQILLIGI BIZ UCHUN HAM AZIZ!»

(Davomi. Boshi avvalgi sonda.)

- Siz boshqarayotgan jamiyat Amerika davlat idoralari bilan yaxshi aloqalar o'rnatibdi, bu aloqalar O'zbekiston bilan qanday kechmoqda?

- Bizning jamiyat birinchi navbatda O'zbekistonning AQShdagi elchixonasi, BMT(UN)dagi vakolatxonasi va Nyu Yorkdagi Bosh Konsulligi bilan 1991 yildan beri yaqin hamkorlik aloqalarini o'rnatib, birgalikda madaniy-ma'rifiy va boshqa tadbirlarni tashkil etib kelmoqda. O'zbekiston bilan yaqin aloqalar asosan mustaqillik davrida boshlandi. Bizning vakillarimiz Vatanga tashrif buyurib, u erda davlat idoralari rahbarlari bilan uchrashib, ikki taraf lama aloqalarni o'rnatdik. Markaziy saylov komissiyasi, O'zbekiston diniy ishlar qo'mitasi, O'zbekiston miliy teleradiokompaniyasi, O'zbekiston Xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik va madaniy-ma'rifiy aloqalar jamiyatlari kengashi, O'zbekiston–Amerika do'stlik jamiyati, «O'zbekturizm» kompaniyasi, «Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi», «Shahidlar xotirasi» xayriya jamg'armasi va boshqa davlat idoralari va nodavlat tashkilotlari bilan uzviy aloqalar o'rnatdik. 2010 yildagi O'zbekistonga tashrifim chog'ida Sharqshunoslik instituti, Toshkent Islom universiteti rahbarlari, shuningdek, muftiy hazratlari, qator vazirlik va idoralari rahbarlari bilan 20 dan ortiq qiziqarli va foydali uchrashuvlarni o'tkazib qaytdim.

Elchixonada va Bosh konsullikda tashkil qilinadigan barcha madaniy-ma'rifiy tadbirlarda amerikalik o'zbeklar ham muntazam ravishda faol ishtirok etishadi. Bundan tashqari, O'zbekistondan tashrif buyurgan san'at, adabiyot, ilm-fan arboblari, jurnalist va yozuvchilar bilan doimiy ravishda uchrashib turibmiz. Bizlar hurmatli adiblar Said Ahmad aka, Erkin Vohidov va boshqalar bilan bo'lib o'tgan uchrashuvni hanuzgacha katta hurmat va ehtirom bilan eslaymiz. Shuningdek, bir qator o'zbek estrada xonandalari bilan uchrashuvlar xotiramizda muqim o'rin egalladi. Bundan tashqari O'zbekistonda o'tadigan saylovlarda va referendumlarda jamiyatimiz vakillari doimo xalqaro kuzatuvchi maqomida ishtirok etmoqdalar. Navro'z, O'zbekiston Mustaqilligi kuni va boshqa bayramlarda ishtirok etish maqsadida vakillarimiz doimo Vatanga tashrif buyuradilar. Nasib qilsa, bu yil 1-sentabrda O'zbekiston Mustaqilligini 20

yilligiga bag'ishlangan tadbirlariga ham bir qator amerikalik o'zbeklarni yuborish niyatimiz bor.

- Janob Abdulloh Xo'ja, siz mustaqil O'zbekistonga birinchi bor 1996 yil tashrif buyurgan ekansiz. Birinchi bor Vatan ostona-siga qadam qo'yganingizda xayolingizdan nimalar kechdi?

- Bilasizmi, buni ikki og'iz so'z bilan ta'riflash qiyin. O'shanda men Moskvaga zarur ish bilan borgan edim, lekin nimagadir xayolimda O'zbekistonga borish aylanaverdi. Hamma ishni tashlab u yerdagi Bosh konsulga murojaat etdim. Ular bir zumda menga viza berishdi va men ona Vatanim tomon otlandim... Samolotimiz Toshkent aeroportiga yaqinlashgach meni kuchli hayajon bosa boshladi, xuddi joyim torlik qilayotganday, nafasim bo'g'zimga kelib tiqilib qolqanday bo'ldi. Yuqoridan go'zal Toshkentning manzarasi meni o'ziga maxliyo qildi. Shu payt dadam va buvalarimning vasiyatlarini esimga tushdi va ko'zimga yosh keldi... Samolot trapidan tushgach, men hech narsaga qaramasdan ona zaminga peshonamni tegizib uni o'pdim va Ollohga shukrlar keltirdim, buni ko'rib turgan bir-ikki fuqarolar hayron bo'lib, bu manzarani kuzatib turdilar.

- Ma'lumingizkim, Nyu Yorkda yaqinda o'zbek tilida chop etiladigan «Vatandosh» gazetasi ta'sis etildi. Iltimos, bunga o'z munosabatingizni bildirsangiz?

- Amerikada turli millat vakillari o'z ona tillarida gazetalar olib o'qishadi, ammo bugungi kungacha o'zbek tilida birona gazeta chop etilgan emas. O'zbek tilida Amerikada chop etiladigan gazetaning ilk soni Amerikadagi o'zbek jamoatchiligi uchun muhim tarixiy voqeaga aylandi deb ayta olaman. Gazeta amerikalik o'zbeklarning tafakkurini oshirish uchun muhim manbaga aylanishi kerak. Albatta, gazeta sahifalarida beriladigan materiallarni o'qigan vatandoshlarimiz Ona zamin, O'zbekistonga bo'lgan muhabbati, mehrini oshirishga yordam berishi kerak. Gazeta, amerikalik o'zbeklar uchun millatimiz tarixi, milliy-madaniy va ma'rifiy merosimizni yaqindan tanishishga imkon yaratadi, deb o'ylayman. Bu esa, bugungi kunda biz uchun o'ta muhim masala. «Vatandosh» gazetasi amerikalik o'zbeklarning do'stiga aylanib, muhim ahborot va yangiliklar manbasiga aylanishiga umid qilaman.

Mavlon SHUKURZODA suhbatlashdi.
shukurzoda@vatandosh.com

UzbekTel.com
Yaqinlarga yaqinroq bo'ling

www.UzbekTel.com

Ўзбекистон ва жаҳонга энг арзон ва сифатли алоқа хизмати

HALAL MEAT AND GROCERY

حلال
HALAL

Madina-R Inc
Adress: 407 Ditmas Ave
Brooklyn NY 11218
Phone: 718.633.0240

NYU JERSIDAGI UCHRASHUVLAR

“Vatandosh” jamoasi ushbu shtatdagi qora ko‘zlar bilan muloqotda bo‘ldi

Manxettenning yerusti va yerostidagi mahobatli ko‘priklaridan o‘tib, Nyu Jersi sari otlar ekanmiz, iliq bir mujdani yetkazishga shoshilayotgandek, ko‘ksimizga pokiza bir epkin urildi. Tekis va ravon yo‘llar, xushmanzara kengliklar va ko‘hlik ko‘chalar oralab, katta magistraldan o‘ngga burilishimiz hamono ko‘zimiz “Turkiston-Amerika assotsiatsiyasi” degan yozuvga tushdi. Yozuv yonidagi muazzam binoga kirib bordik. Bizni iliq kutib olishdi, zinalardan tushib, yerto‘la sari boshlashdi. Biz yerto‘laga emas, olis yurtdagi mo‘jaz Ozbekistonga borib qolgandek sezdik o‘zimizni. Do‘ppi, to‘n kiygan va hatto oyog‘iga kalish ilib olgan insonlar, xontaxta atrofiga ko‘rpachalar to‘shab qo‘yilgan chorpoyna va dilga yaqin boshqa manzaralar bizga yana bir karra ona-yurtni eslatganday bo‘ldi. Bizni yaxshi duolar bilan kutib olgan bu insonlarning chehralaridan nur yog‘ilib turardi. Bu nur bizningda qalblarimizni ravshanlashtirib yubordi.

Jum‘a namozidan keyin bu yerdagi yurtdoshlarga “Vatandosh”ning nishona sonini ulashdik. Ular gazetaga dastlab hayrat bilan boqishdi, o‘zbekcha jumalarni o‘qishlari hamono dildagi taajjublar tilga chiqdi:

- Barakalla, bebaho ish bo‘libdi.
- O‘z tilimizda ham majalla o‘qisak bo‘larkanku?..
- Menga yana bir dona bering, qo‘shnimdan ham suyinchi olay...
- Biz majallani o‘zimiz qo‘llab-quvvatlaymiz.

Bu gaplarni aytayotganlarning aksariyati O‘zbekistonni ko‘rmagan, u haqdagi hikoyalarni biri Qobulda, ikkinchisi Arabistonda, uchinchisi Turkiyada narigi dunyoga allaqachonlar rixlat qilgan ota-onalaridagina eshitgan, dillari bolaligidayoq volidalarining sog‘inch ko‘z yoshlari bilan sho‘rlangan, ana shu tuyg‘u bir daqiqa bo‘lsa-da orom bermay, ona-yurt sari talpintirayotgan, musofirchilikning achchiq alamlari butun vujudini tutatayotgan insonlar edi. Garchand chehralari notanish bo‘lsa-da, ular begona emas, dardu hasratlari, tashvish-tadoriklari bilan yaxlit bir vujud edi. O‘sha kuni hammamizni birlashtirishga undayotgan yogona tuyg‘u - VATAN tuyg‘usi oldingi o‘ringa qalqib chiqdi. U bizning qarashlarimizda, hatti-harakatlarimizda, muloqotlarimizda zohir bo‘ldi. Bu samimiyat o‘zbekona tayyorlangan palovxonto‘ra ustida ham, goh turib, goh o‘tirib qilgan suhbatlarimiz chog‘ida ham, assotsiatsiya rahbari Abdulla Xo‘ja bizni bu go‘shada

amalg oshirilgan ishlar bilan tanishtirayotgan asnodam ham suv ustidagi po‘kakdek qalqib turardi.

Darvoqe, biz bu muhtasham binoni aylar ekanmiz, milliy jihozlardan tashqari devorlardagi milliy naqsh va jilolarni ko‘rib hayratlandik. Abdulla aka hayratimizni sezdi chog‘i, izoh berdi:

- Bu bino ta‘mirida o‘zbekistonlik ustalarining beminnat yordamlari bor. Mana bu xonani kutubxona qilmoqchimiz, - deydi hamrohimiz. - Tariximizga doir asarlar, bugungi ma‘naviyatimiz darg‘alari ijodidan namunalar qo‘yamiz. Toki ziyoxonaga kirganlar o‘tmishimizning qora sahifalaridan ham, bugungi istiqolimiz nash‘idasidan bahramand yurtdoshlarimiz, qolaversa, xorijda yashayotgan vatandoshlarimiz hayotidan ham voqif bo‘lsinlar. Biz bu yumushni, albatta, bajarimiz.

Devorlardagi fotosuratlar bu maskanda katta-katta bayramlar, anjumanlar o‘tkazilganligidan, ularda mashhur kishilar, atoqli san‘atkorlar bilan bir qatorda mamlakatimizning AQShdagi rasmiy va norasmiy tashkilotlarining vakillari ham qatnashganligidan guvohlik berib turibdi.

- Sizlarning gaplaringizdan behad mutaassirlandik, - deydi Abdumalik otlig‘ vatandoshimiz. - Shunday kunlarga yetkazganiga shukur. Bu zaminida o‘zbekcha majalla chiqadi, biz uni o‘z ona tilimizda baralla o‘qiyimiz, deb o‘ylaganmidik. Rahmat sizlarga.

So‘ng u Abdulla akaga yuzlanib “Menga ham hozircha yuztacha majalla bering, kerak bo‘lsa, xonadonma-xonadon yurib, o‘zim tarqataman”, dedi.

- Bu xayrli ishda men ham qatnashaman, - deya safimizga qo‘shildi Abdujabbor degan yigit. - Millat kamoloti uchun qilinajak yumush er yigitga yuk bo‘lmas. Qolaversa, mening ikkita biznesim ham bor. Ularni ham aynan ushbu nashrda reklama qilaman.

Shunda biz angladikki, “Vatandosh” yolg‘izlanib qolmaydi! Hademay, “Vatandosh”ni Vatan yanglig‘ sevadiganlar ko‘payadi, ularning soni minglarga, millionlarga yetadi. “Vatandosh” ham har doim o‘zini sevguvchilar yonida bo‘ladi, ularning quvonch va tashvishlariga sherik bo‘lg‘usidir, inshoalloh!

Shu o‘rinda bir voqea yodimizga tushdi. Gazetaning nishona sonini chiqarishga taraddudlanib yurganimizda har xil kinoya va qochiriqlar ham bo‘ldi. Uning chiqishiga shubha

bilan qararaganlar, “hali chiqqanda o‘qirmiz”, deguvchilar ham yo‘q emas edi. Ular bugun gazetamizning qo‘lma-qo‘l bo‘layotganligini ko‘rib, til tishlab qolishdi. Hatto o‘shanda bittasining “Gazetangiz nima to‘g‘risida yozadi, yana o‘sha “serquyosh” O‘zbekiston haqidami?” degan alamzada savoli ham esimizda. Biz ham uning savoliga savol bilan javob qaytarganimiz bor. “Xo‘sh, serquyosh O‘zbekiston nega sening bo‘g‘zingdagi toshday turibdi? Unda nima alaming bor? Yoki tanang bilan undan oftobni to‘smoqchimisani? Sen tug‘ilgan, voyaga yetgan yurtingga qanday karomat ko‘rsatding? U sening qaysi intilishlaringga soya solmoqda? Ehtimol, kimlardadir alaming bordir? Ammo, mashhur kinolardan birida aytilganidek, “o‘z juningni davlatning juniga aralastirma”. Kimsaning aybini Vatanning gardaniga ag‘darmagil!”

O‘zga yurtdagi o‘z millati qadriyatlarini bayroq qilayotgan gazeta uchun, garchand O‘zbekistonda tug‘ilmasa-da, uni Vatan deb bilgan yurtdashlarimizning shijoati, fidoyiligi oldida, aslida bu, tariqchalik gap ham emas. Ammo O‘zbekiston Xalq shoiri Abdulla Oripov aytganidek, “Alam qilar ekan, bir umr giryon, Itlar orasidan o‘tsa karvoning”.

Biz Nyu Yorkka qaytganimizdan keyin ham ortimizdan qo‘ng‘iroqlar tinmadi. Gazeta tarqatish, obuna qilish, uning mazmun-mundarijasini boyitish, unga reklama berish kabi masalalar bo‘yicha tahririyatimizga tinimsiz qo‘ng‘iroqlar bo‘lmoqda. Hatto “Vatandosh”ning keyingi sonlari xususida qayg‘uriyatganlar ham anchagina. “Marg‘ilonda shunday kelinimiz bor ekanu”, deganlaridek, “Vatandosh”ning shuncha ichi achirlari, ya‘ni jonkuyarlari bor ekan, demak, yukimiz yerda qolmaydi.

Nyu Jersidagi farishtali chehralar haqidagi ushbu maqolamizga so‘nggi nuqta qo‘yishimiz hamono, telefonimiz jiringlab qoldi:

- Bu “Vatandosh” gazetasi? Men Nyu Yorkdan, Foster avenyudagi do‘kondan Normurodman. Berib ketgan bir dasta gazetanglar talata bo‘b ketdi. Odamlar gazeta so‘rashmoqda, bo‘lsa yana beringlar, jonimiz bilan tarqatamiz!

Endi, aying-chi, aziz gazetxon, bu gaplarni eshitgandan keyin qo‘l qovushtirib, jimgina o‘tirib bo‘ladimi? Qani ketdik, gazetaning navbatdagi sonini chiqarishga!!!

Alisher AYMATLI.

AFSONA RESTAURANT



Address: 414 Ditmas Avenue,
Brooklyn, NY 11218.
Tel.: (718) 633-3006

MOVING



Shohjahon, Inc
Address: 1073 Brighton
Beach Ave.
Brooklyn, NY. 11235.
Ph. 646.705.8303

YO'LI OYDIN, MEHNATI BARAKALI

O'zbek millati nafaqat quvg'in bilan, balki ilm olish, komil inson bo'lib voyaga etish maqsadida ham vatanni tark etib, uzoq yurtlarga safar qilganlar. Jumladan, al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Ahmad Farg'oni, Abu Nasr Forobiy kabi allomalar ilm olish ilinjida uzoq yurtlar safarini ixtiyor etganlar. O'tgan asr muqaddimada ham ko'plab yoshlar tahsil olish uchun Yevropa mamlakatlariga ketishgan. Xususan, jadid ma'rifatparvarlarining aksariyati chet ellarda o'qib qaytishgan. Ularning musofirchilikda kechirgan turmushlari qay darajada bo'lgan? Mashg'ulotlari, tirikchiliklari qanday kechgan? Shular haqda gazetonlar, menimcha, ko'proq bilishni istaydi.



Men ham bugun Manxettendagi o'quv yurtlaridan birida tahsil olaman. Institutimiz tibbiyot yo'nalishida. Ustozlarimiz juda mukammal saboq beradilar. Amaliy mashg'ulotlar ham qat'iy talabchanlik asosida olib boriladi. Bir kuni ustozimiz Avitsenna ta'limoti haqida gapirib qoldilar. Ammo uni negadir arab olimi deb ta'kidladi. Shunda men o'qituvchining xatosini to'g'riladim, u mening bobom ekanligini, asl ismi Abu Ali ibn Sino bo'lganligini aytdim.

Darhaqiqat, bizda dunyo tamadduniga ulkan hissa qo'shgan qomusiy allomalarimiz ko'p. Jumladan, bundan o'n asr ilgari Beruniy bobo okean ortida quruqlik borligini bashorat qilganlar. Ulug'bek rasadxonasida tayyorlangan "Zij" hisob-kitoblari bugungi komputerashtirilgan raqamlardan katta farq qilmaydi. Zamaxshariy bobomiz arab tili grammatikasidan saboq bergan. "Temur tuzuklari"-chi? Bularni birma-bir sanab ado qilib bo'lmaydi.

Shuningdek, biz bugungi O'zbekiston hayotidagi yangiliklardan ham aynan ushbu nashr orqali tanishishni xohlaymiz.

Yo'llaring oydin, qadamlaring zalvorli, mehnatlaring barakali bo'lsin, "Vatandosh"! Biz sen bilan hamisha hamkor va hamnafasmiz.

Farhod USMONOV,
Swedish instituti talabasi, Nyu York.

AZIZ VA LAZIZ BO'LSIN!

Qaldirg'och gazeta Amerikaga ham ayni bahor boshlanishi bilan kirib kelayotir. Aslida qaldirg'och har yili ko'klamda qaytib kelaveradi. Ammo biz, ya'ni yurt sog'inchi bilan yashayotgan amerikalik o'zbeklar uni, yanada aniqroq aytganda, qaldirg'och parvozli "Vatandosh"ni salkam bir asrdan buyon kutamiz. Avval unga ota-onalarimiz intiq bo'lishdi, keyinchalik biz uning yo'llariga ko'z tutdik. Va nihoyat, u bizning osmonimizda ham parvoz qila boshladi. Ilohim, uning parvozi abadiy bo'lsin! U mudom ellarni ellarga, dillarni dillarga bog'lab yuraversin!

Gazetaning har bir sahifasi odamlar qalbiga bahoriy kayfiyat tuhfa etsin! Hammamizga ma'lumki, qaldirg'och — chevar qush. U qurgan uyaning me'moriy echimini hali insoniyat o'rganmagan, juda mustahkam va ko'rkam bo'ladi. Biz ham "Vatandosh"da ana shunday go'zal, maftunkor, insonlarni nekbin niyatlarga undovchi aziz va laziz maqolalarni kutib qolamiz.

Hoshim SALIM,
"Turkiston — Amerika" uyushmasi a'zosi.

QANDAY YASHAYAPSAN, VATANDOSH?

"Vatandosh"ning nishona sonini sinchiklab o'qib chiqdim va uning ijodkorlariga tasanno aytdim. Shu tufayli, eng avvalo, men vatandoshlarimizni ushbu yangi nashr bilan, uning tavalludi bilan tabriklayman.

Millatning ma'naviy-axloqiy yo'li tuganmasdir. Qadriyatlarini bebaho va bitmasdir. Gazeta o'z yo'nalishini ana shu yo'lga moslab olgani meni juda quvontirdi.

O'zbeklar taqdir taqozosi bilan butun dunyoga tariqday sochilib ketgan xalq. Bu millat ne bir iztiroblarni, ne bir sho'rishlarni ko'rmadi? Ne bir kulfatlarga, g'amu alamlarga oshno bo'lmadi? Xalqimiz sabr-qanoatli bo'lgani bois, katta yo'qotishlar qilsa-da, yaxshi kunlarni intizor kutdi. O'zbekiston mustaqil bo'ldi. Bu istiqlol shabadasi Vatandan yiroqdagi o'zbeklarning ham ko'ksini osmon kabi yuksaltirdi.

O'ylaymanki, "Vatandosh" ham ana shu evrilishlarning hosilasi! Biz istardikki, gazeta faqat Amerika hududi bilan chegaralanib qolmasa. Axir, bizning vatandoshlarimiz Turkiyada, Arab mamlakatlarida, Eron va Afg'onistonda, Rossiyada hamda Yevropaning qator davlatlarida ham istiqomat qilishadi. Biz ularning hayoti bilan ham qiziqamiz.

"Vatandosh" millatsevar va shijoatli gazeta bo'lib qolishini juda-juda istaymiz.

Xosiyatxon SOBITOVA,
"Qashqar" kafesi sohibasi, Nyu York.

BOSHIMIZ OSMONGA YETDI

Assalomu alaykum, aziz vatandoshlar!

"Sehri diyor"da yangi gazeta nashr qilina boshlanganini eshitib, boshim osmonga yetdi. Bu millatimiz yutug'i, urib turgan qalb irodasi, Vatan shabbodasidir.

Allohga shukrlar bo'lsinki, qadim Turkistonning birlik va yaxlitligi uchun kurashgan bobolarimiz farzandlari ham endilikda Amerikada o'z ona tilida gazeta o'qiydigan bo'lishdi.

Shu kunlarda Xo'jandda ham "So'g'd viloyati o'zbeklar ma'naviyat va ma'rifat markazi" jamoatchilik tashkilotining "Ma'naviyat" gazetasi dunyo yuzini ko'rajakdir. Bunga ham, umiddirki, sanoqli kunlar qoldi. Biz sizning gazetangiz haqidagi bu shodlik xabarini o'z nashrimizda, albatta, chop etamiz.

Mehmondo'st va qalbi bolajon, mehri ummon amerikalik vatandoshlar! Umiddirki, ushbu maktub biz - So'g'd o'zbeklarining bir jamoatchilik tashkiloti va Sizlar - Amerikalik o'zbeklar orasida doimiy aloqa debochasi bo'lib qolgusidir.

Sizlarga va atrofingizdagi barcha vatandoshlarga qutlug' ishlaringizda omad va zafarlar istab qolaman.

Cheksiz hurmatlar bilan:
Ravshan SHAMS.
Tojikiston, Xo'jand

Law Offices of Olga Bychok P.C
2610 E. 18th st, Suite 5. Brooklyn. NY. 11235
Phone: 718.303.8990

YURAKDAGI BUXORO

Ilgarilari Buxoroni ermakka — tomosha uchun tomosha qilardik. Kun o'tdi, yil o'tdi, shu buyuk tuproqning farzandi, nomim shu ulug' zaminning nomiga tutashligini hisetganonimdan boshlab vujudimni dahshatli bir qo'rquv egalladi: Buxoroni tomosha qilish mumkin emas! Farzand tomoshabin, yurt esa hech qachon saylgoh bo'lmas ekan...

Har gal Buxoro ko'chalariga yo'lim tushsa, shahodat kalimasini takrorlab, tangri ato etgan yurtimda gunohlarimdan kechishini, g'ofil farzandiga g'oyibdan kuch-quvvat, mehr, sodiqlik, muruvvat baxsh etishini so'rayman. Ilinj bilan kutganim — ishonganim Buxoro tuprog'ida, nuragan naqshlar qatida pinhon. Bilaman, u sir-asrorini, shon-shavkatini, bor haqiqatu yuzini qachondir, kimgadir ochadi, ishonaman...

Shaharlarning raqibi yo'q, ammo ularning bag'rida qo'rqoq va sotqin, manfaat gadolari bo'lmish xushomadga moyil, qullikka tashna egri qadlar hamisha davru davron surib yashagan. Imon-e'tiqod shahri, nur shahri bo'lmish Buxoro ham bundaylardan xoli emas edi. Sir emas, tafakkur, aqlu-hush, ko'z, qo'l va oyoq nasib etgan biz farzandlar FAXRdan tonib, qo'limizga tosh tushsa, birinchi bo'lib moziyga, moziyning yoqut ko'zi Buxoroga otdik. Tosh otish uzoq davom etdi.

Buxoro to'ntarishi, zo'ravonlik, qizil qo'shinning bosqini, amir Sayyid Olimxonning shaxsi, xazinasini, uning Moskovda bir umr tutqunlikda ushlangan uch o'g'li taqdiri — bular bari taqiqlangan mavzu edi. Dunyoda o'z tarixingni bilmaslikdan og'irroq jazo bormi? Buning ustiga avlodu ajdodlaring, yaqin kechmish senga dushman qiyofasida tasvirlansa, o'rgatilsa...

Har gal xalqimiz tarixining og'irkarvon, qudratli, ilm-ma'rifatli musulmon dunyosining toji Buxoro pusyiga sig'inib boraman. U esa jim — gapirmaydi. Uning yaralangan yuragiga tosh osilgan, botmon-botmon tosh! Nuragan, sho'r bosgan nomozgohlar, madrasayu xonqohlar, darvozayu devorlar, saroylar og'irjudolik, yo'qotishlardan xuddi gung bo'lib qolgandek. Tushunaman: odam chidolmagan achchiq qismatga Buxoro chidadi.

... 1924-yilning 1-avgustida

Buxoro xalq sho'ro jumhuriyatining Moskvadagi vakolatxonasida muxtor vakil Abdurahim Yusufzoda bilan professor M.Y. Ginzburg o'rtasida Buxoroning tarixiy va madaniy yodgorliklarini ko'rikdan o'tkazish, ilmiy ro'yxatga olish, qulayotgan yodgorliklariga nisbatan kechiktirib bo'lmas ta'mirlash tadbirlari rejasini ishlab chiqish va qator loyihalar tuzish haqida shartnoma tuzilib, imzolangan edi. Ha EDI! EDI bu, bir paytlar — o'tgan zamon va o'tgan va'dalarning syrati, shakli. Biz ba'dalar beraverdik, ertaklar to'qiyverdik, charchamadik. Chunki va'daga, aldovga, sabrga o'rgangan, ko'nikkan ei edik. Bizni xiyonat — soti, zo'ravonlik — qul qildi, ayriliq, umid, ozodlikka tashnalik — ko'kartirdi, bor qildi.

Nihoyat, nihoyat biz kutgan Ozodlik yurtimizga qanot qoqib, uchib keldi. Bugun minoralar uzra, gumbazlar uzra va'da emas, Ozodlik quyoshi porlamoqda. Bugun senga kimdir qo'l, kimdir ko'z bo'lgisi keladi. Hammasiga imkon otlig' mezon borki, vatandin o'zga yor o'lmas!

Ollohga ming shukrlarkim, endi biz Buxoro to'ntarishini Buxoro inqilobi deb yozmaymiz, yolg'on shakl, yolg'on mazmun bilan farzandlarimizni aldamaymiz. Qismatning og'ir yukini yelkalab xorijga ketgan farzandlarini Vatani xoini deb nomlamaymiz. Seni



Said Olimxonning Moskvaga olib ketilgan o'g'illari Said Sultonmurod, Said Rahimxon, Said Shohmurod (chaptan o'ngga). Ixtiyorsiz, majburan olib ketilgan amir zurriyodlari Moskvada qattiq nazorat ostida bo'lishdi. Ma'lum muddat o'tgach, ularni otalari — Amir Olimxondan voz kechishga da'vat etishdi. Uchala o'g'ilning taqdiri ham fojeali kechdi...

men emas, Istiqlol topdi. Uzilgan qadamlar, yurakda qotgan armonlar o'z go'shasini tark etib, sen tomon oqmoqda. Ey, bobo yurtim, ota yurtim Buxoro! Eshit! Bugun seni qutlash niyatida farzandlaring sen tomon shamoldek yelmoqda.

Sobiq Buxoro amiri Sayyid Olimxon avlodlari hamda u kishining farzandlari — Sayyid Ibrohim Olimxon o'g'li, Sayyidrahim Rahimxon Olimxon o'g'li, Sayyid Xodixon Olimxon o'g'li, Sayyid Ibod Olimxon o'g'li, Sayyid Kabir Olimxon o'g'li, Sayyid Mansur Olimxon o'g'li, Sayyid Hoji Olimxon o'g'li, Sayyid Rauf Olimxon o'g'li nomidan Turkiyaning G'oziantep shahridan yozilgan maktubda, xususan, shunday deyiladi:

“...Bundan 73 yil muqaddam, 1920-yilning 1-sentabrida taqdir bizning otimiz Buxoro amiri Sayyid Olimxonni Vatanni tark etishga, din va ilm diyorini bosqinchilar qo'lga qoldirib ketishga majbur qilgan edi. Shundan keyin padari buzrukvorimiz ham, xonadonimiz a'zolari ham, bizga hamroh bo'lgan vatandoshlarimiz ham bir orzu bilan yashadik: Vatan ozodligini ko'rish. Bu orzu yo'lida jismimiz, tilimiz, dilimiz kurashi bir on ham to'xtagan emas. Ko'plab qurbonlar berildi. Bu kunlarga yetmaganlar intig'u ilhaqlikda foni dunyodan ravona bo'ldilar. Bugungu O'zbekiston ahli qatori ana shu davrni ko'rish bizga nasib ettikim, yaratganga hamdu sanolar aytamiz.

Ilohim, Vatan uzra erk quyoshi muqim porlagay!”

Otani boladan, bolani otadan ayirgan tuzum — davrning kulfatini chekish nechog'li og'ir. Xorijda tavallud topib, Vatan sog'inchida yashagan, yashayotgan vatandoshlar, Vatan ozodligidek buyuk baxtni intiqlik bilan kutgan avlodlar uchun Vatan tomondan ham samimiy chorlov yangradi.

Ana shular bois Buxoro amiri Olimxonning uch o'g'li — Sayyid Umarxon, Sayyid Kabirxon va Sayyidmuhammad Ibrohim ota yurtga tashrif buyurdilar. Ular Karmanada bobolari Abdulahadxon qabrini ziyorat qilishdi. Buxoroni tavof qilib, Toshkentga qaytishdi.

“Oy-kunlar suvday o'tadi”, deyildilar. To'g'ri, kimningdir nazdida shundaydir. Lekin... Amir Olimxonning xorijda tug'ilgan




Katta minora (Minorai kalon) Buxoro shahrining me'moriy ramzi sanaladi. 1920-yilning sentabridagi to'ntarishda Frunze jallodlari tomonidan Buxoro yondirildi, portlatildi, tarixiy obidalarimiz bombardimon qilindi. Yarador minorada aks etgan ushbu holat rus bosqinchiligi tarixidan hikoya qiladi.

farzandlari uchun ota qismatidek murakkab, chalkash, oxiri umidsizlik bilan tugaydigan imkonsiz yo'llar taxlanib yotadi. Ushbu oila fojeasini dunyodagi hech bir oila bilan qiyoslash mumkin emas. Farzandlar yurtidan zo'rlik bilan quvilishdek qismatni ko'tarib o'tgan ota armonlarini juda erta angladilar. Ular amirzoda bo'lsalarda, bolalikdanoq aldov va qizil imperiyaning nohaq zulmini tortdilar. Qator mahrumliklar iskanjasida ulg'aydilar. Ularning ham yurti — Vatani bor edi. Xeshu aqrabo, yaqinlar, muhimi, ozodlikdek eng buyuk imkonning bag'rida yashashi mumkin edi, ular. Lekin, o'tgan va o'tayotgan yillar — vaqt guvohlik beradiki, bunday bo'lmadi, yo'q...

(Davomi kelgusi sonda.)
Rajabboy RAUPOV.

Rajabboy RAUPOV — taniqli yozuvchi va jurnalist. O'zbekistonda o'nlab kitoblari chop etilgan. “Yurakdagi Buxoro” uning Vatan va uning taqdiri haqidagi yodnomasidir. Biz ham uni ba'zi bir juz'iy qisqartishlar bilan gazetxonlarimizga ilindik.

MENI OLIB KETING O'Z DIYORIMGA



Abdulla Oripov haqida so'z ketganda, o'zbek she'riyatida inson qalbidagi murakkablik va ziddiyatlarni teran, haqqoniy, o'ziga xos betakror kuylagan ulkan ijodkor ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi. Abdulla Oripov hozirgi o'zbek she'riyatiga yangicha badiiy tafakkur yo'sinlarini olib kirdi. U tub mohiyati bilan Yassaviy, Navoiy, Bobur, Cho'lpon, G'afur G'ulom singari ijodkorlar badiiy an'alarining davomchisidir. Shoirning butkul ijodi milliylik ruhi bilan sug'orilgan.

Abdulla Oripovning birinchi she'riy to'plami "Mitti yulduz" 1965 yilda chop etildi. Keyinchalik shoirning "Ko'zlarim yo'ligda" (1966), "Onajon" (1969), "Chashma", "Ruhim" (1971), "O'zbekiston" (1972), "Hayrat" (1974), "Yurtim shamoli" (1976), "Yillar armoni" (1984), "Ishonch ko'priklari" (1989), "Munojot" (1992), "Haj daftari" (1995), "Saylanma" (1996), "Asarlar" (4 tomlik - 2001) singari she'riy kitoblari nashr qilindi.

O'zbekiston Respublikasining madhiyasi Abdulla Oripov so'zi bilan aytiladi.

Millat ma'naviyati va estetik tafakkurini rivojlantirishdagi xizmatlari uchun shoir Abdulla Oripov ijodkorlar orasida birinchi bo'lib, 1998 yilda "O'zbekiston Qahramoni" degan yuksak unvonga sazovor bo'ldi.

O'zbek xalqining sevimli farzandi erta-indin muborak 70 yoshga to'ladi. "Vatandosh" gazetasi jamoasi ham ulug' shoirimizga sihat-salomatlik, ijodiy bardamlik tilab qoladi va shoirning ijozati bilan mushtariylarga yning turli yillarda yaratilgan dilbar she'rlaridan namunalar beradi.

MENI OLIB KETING

Tinch edi hamma yoq, tinch edi har yon,
Titradi go'yoki yer bilan osmon.
Boshimga xastalik tushdi nogahon,
Meni olib keting o'z diyoringa.

Issiq jon, deydilar, jon bo'lsa bo'lar,
Payt kelsa chechak ham sarg'ayar, so'lar.
Kim bilgay paymonang qay yerda to'lar,
Meni olib keting o'z diyoringa.

Ginam bor bu yurtning na havosidan,
Mehribon doktoring na davosidan.
Qaytarmang xastani muddaosidan,
Meni olib keting o'z diyoringa.

Sha'nimga g'ayurlar bir so'z demasin,
Har kim o'zi tortar umr kemasin.
Hech kimni mushtoqlik dardi yemasin,
Meni olib keting o'z diyoringa.

Talpingan diyoring, u - O'zbekiston!
Sehrini aytishga bormi hech imkon!
Yo'q, o'zga yurtlarda berolmasman jon,
Meni olib keting o'z diyoringa.

1981, Moskva

HAYRONLIK

Chindan g'alat erur dunyo ishlari,
Miyang g'ovlab ketar o'ylagan sari,
Diyonat, xiyonat aralash bari,
Boqib bu savdoga, hayron o'tdik biz.

Ko'rdik inson fe'lin o'ru qirini,
Baham ko'risharlar avval sirini.
So'ngra nimta qilar biri birini,
Boqib bu savdoga, hayron o'tdik biz.

Goho sendan aziz ostingda oting,
Goh bir g'alamisga bog'liq hayoting,
Yaxshiyam qatorda bordir bayoting,
Boqib bu savdoga, hayron o'tdik biz.

Sen deysan, dilim pok, rashkdan yiroqman,
Sen unding, men esa hanuz tuproqman.
Yo'q, do'stim, men sendan bechoraroqman,
Boqib bu savdoga, hayron o'tdik biz.

Ne qilay, yomonga o'qiyimi la'nat,
Yo shodon qo'shiqlar aytaymi faqat.
Birovda mehr mo'l, birovdan nafrat,
Boqib bu savdoga, hayron o'tdik biz.

Har qalay baxtlimiz - tirikmiz magar,
Qolgan gaplar esa o'tarda ketar.
Bamisli karnayga ishq tushgan kar,
Boqib bu savdoga, hayron o'tdik biz.

ARSLON CHORLAGANDI...

Erkin Vohidovga

Biz ham yuksaklarga tikkandik ko'zni,
Bizda ham bor edi matonat, bardosh.
Arslon chorlagandi qoshiga bizni,
Lekin qumursqalar bo'ldi safardosh.

Jami tiriklikka tanish shu xatar,
Qumursqa yaralgan yoppa talarga.
Do'stim, alam qilar, arslon bexabar,
Yem bo'lib ketsak shu qumursqalarga.

Hayotning mana shu burjidan turib,
Men Sizni o'yladim, hazrati Bobur.

1982 Siz - zobit, dastini cho'zgan dunyoga,
Siz - shoir, mangu bir alanga yoqqan.
Nainki bandalar, Sizning siymoga
Ne-ne saltanatlar kek bilan boqqan.

Bahodirlik ichra yor Sizga Humoy,
Siz ulug' zotlarning izin bosgan er.
Nazmiy sajdagohda Sizga, hoynahoy,
Imomlikka o'tgay faqat Alisher.

Ha, yolg'iz she'r qoldi, boshqasi, abas,
Yetti iqlim aro doston naqlingiz.
Ne baxt, parchin bo'lib toj degan qafas,
Bizga yetib keldi olmos aqlingiz.

1982 Ayting, ne topdingiz Siz kezib dunyo,
Hanuz boqisharlar sho'rishga to'lib.
Shoirsiz, yaxshisi, qolingiz, Mirzo,
Mushfiq yurtingizda bir shoir bo'lib.

1983

BOBUR

Men-ku, oddiy odam,
Shundoq bo'lsa ham
Shukr, bas, deganча g'animlarim bor.
Shart emas ularga ta'rif chinakam,
Biri jununsifat, birovi hushyor.

Biroviga yoqmas jindek jur'atim,
Biroviga yoqmas men yurgan yo'lak.
Nogoh biror joyda chiqsa suvratim
Biri uxlay olmay qiynalsa kerak.

Biz shunday o'tamiz,
Ya'ni kun ko'rib...
Maydagina kuchsiz, maydagina zo'r.

TUNISLIK BOLA

Rimda Tunisdan ish axtarib kelgan bir o'spirinni
ustidan benzin quyib yoqib yubordilar

Afsus, razolatga botdi bu ochun,
Aybni yaratganga to'nkamoq nechun.
Senga o't qo'ydilar bir ermak uchun,
Rimga nega kelding tunislik bola?

Bilaman, sen uchun parcha non qahat,
Zamin mozor bo'lsa, Afrika lahad.
O't qo'ysa, o't qo'ysin o'z eling faqat,
Rimga nega kelding tunislik bola?

Bu shundoq manzilki, do'stni yovlaydi,
Ota o'z farzandin avrab tovlaydi.
Bu yurtning sayyodi odam ovlaydi,
Rimga nega kelding tunislik bola?

Shundoq holga kelmish qadimiy Lotin,
Bulg'alar sharafin, bulg'alar zotin,
Chumolicha ko'rmas odam hayotin,
Rimga nega kelding tunislik bola?


Ha, olov ostida butkul yer yuzi,
Tutunga to'lmoqda odamzod ko'zi,
Yonib ketmasaydi zaminning o'zi,
Rimga nega kelding tunislik bola?

1984



MUROD QACHON MURODIGA YETADI?

AQShdagi nolegal talabalar hayoti xususida



Murod ota-onasi bilan Nyu Yorkka kelganida maktab o'quvchisi edi. Bu shaharda maktabni bitirdi, nufuzli kollejlardan biriga hujjat topshirdi. Ota-onasi farzandining kelajagi yo'lida unga hamma sharoitni yaratib berdi. U shu yil yozda bu o'quv dargohini ham tamomlashi kerak.

Ammo hayot Murod o'ylaganchalik emas ekan. Uning yo'li kursdoshlari — amerikalik yoshlar singari xohlagan tarafga emas, boshi berk ko'chaga kirib qoldi. Negaki Murodning ota-onasi ham "hujjatsiz" edi. Shunday qilib, yosh mutaxassisning kelajak yo'li chigallashib ketdi.

— Tabiiyki, mashhur korxonalar nolegal bo'lganim uchun meni ishga olmaydi, — deydi Murod. — Demak, men qandaydir shubhali biznes korxonalaridan ish izlashim kerak yoki meni o'qisin, kelajagi yorug' bo'lsin, deb niyat qilguvchi ota-onam kabi qora ishda ishlashim darkor.

Ha, Murod ayni paytda taqdiri qil ustida turgan ko'plab nolegal talabalar (statistika bo'yicha ular 1,2 mln.ni tashkil qiladi)dan biri. Ma'lumigizki, o'tgan yili yozda minglab yosh nolegal immigranlar "yerto'la"dan chiqib, o'z maqomlari to'g'risida ochiq bayonot bergan edilar. Ular Amerikadagi barcha kompaniyalarni nolegal talabalar uchun AQSh fuqaroligiga yo'l ochuvchi Dream Ast qonun loyihasini qo'llab-quvvatlashga chaqirgan edi. O'tgan yili dekabrda bu loyiha Vakillar palatasida qabul qilindi, ammo Senatda rad etildi.

Vashington universiteti sotsiologi Roberto Gonsalesning ta'kidlashicha, o'tgan yilgi muvaffaqiyatsizliklar nolegal talabalar kayfiyatiga ta'sir o'tkazmasdan qolmadi. Buni so'rovnoma natijalaridan ham bilsa bo'ladi. Ular hozir juda hayajonda va tushkun kayfiyatda.

— Ular o'zlarining ko'plab savollariga javob ololmadilar va endilikda qayoqqa borishlarini ham bilmaydilar, — deydi Gonsales janoblari. — Ular o'zlarining aksiyalari amerikaliklarga ta'sir o'tkazadi, nolegallar haqidagi qarashlarini o'zgartirishga majbur etadi, deb umid qilgan edilar. Ammo barcha eshiklat taqa-taq yopildi, bu ko'pchilikka og'ir zarba bo'lib tushdi.

Gonsalesning fikricha, yosh nolegallar uchun haqiqatning achchiq sabog'i ular o'qishni tugatib, ish izlay boshlagan davrdan bilina boshlaydi. Ularning aksariyati a'lo baholarga o'qishadi, ammo ular ishga qonuniy joylashish huquqidan mahrumdirlar. Shu tufayli bakalavr diplomini olgan yigit-qizlar ishni xuddi ota-

onalari kabi restoranlarda idish-tovoq yuvishdan yoki begona uylarni tozalashdan boshlaydilar. Afsuski, ming mashaqqat bilan olingan diplom ularga ijtimoiy pillapoyalardan yuqorilashga yordam bermaydi.

Prezident Obama yaqinda Amerika xalqiga qilgan murojaatida va ko'plab intervyularida aytayaptiki, u joriy yilda Dream Astning qabul qilinishi uchun jiddiy kurashadi. Ammo saylovdan keyin Dream Ast ko'rib chiqilishi zarur bo'lgan qo'mitalarda Respublikachilar juda muhim va muqim o'rin egallaganlar. Shu tufayli, garchand prezident va'da qilayotganiga qaramasdan, yosh nolegallar va ularning huquqlari himoyachilari yaqin ikki yilda orzulari amalga oshishiga ko'p ishonmayptilar.

Obama "hujjatsiz" yoshlarning kurashini qo'llab-quvvatlashini takrorlashdan charchamayapti. Immigratsiya hokimiyati esa Amerikada hech qanday jinoyat sodir etmagan talabalar biz ushlashimiz va o'z mamlakatlariga deportatsiya qilishimiz lozim bo'lgan nolegallarning birinchi qatoriga qo'yilmaydilar, deb va'da berishmoqda.

To'g'ri, Immigration and Customs Enforcement (ICE) agentlari talabalarga teginmaslikka harakat qilishmoqda. Bundan tashqari, reydlarda qo'lga tushib qolgan talabalarni ijro hokimiyati vakillari o'z vakolatlaridan foydalangan holda, ularni ushlab turishga yoki deportatsiyasini bekor qilishga urinmoqdalar. ICENing matbuot kotibi Brayan Xeylning bayonotiga ko'ra, uning agentligi "har bir ishni alohida ko'rib chiqadi va har bir nolegalning taqdirini uning Amerikadagi faoliyatiga muvofiq hal etadi".

Ammo talabalar bu murojaatni asossiz deb baholamoqdalar. Gap shundaki, Obama ma'muriyatining ko'plab vakillari yosh nolegallarga rahm-shafqat etib, o'z huquqlarini suiste'mol qilishni xohlamaydilar. Bundan tashqari, ular nolegallar tufayli kongressmen Lamar Smit (Dream Astning engashaddiy muxolifi) va boshqa respublikachilar bilan xafalashgilari ham yo'q. Axir, Smit va uning maslakdoshlari qahrlansalar, kelgusi immigratsiya qonuni muhokamasida ijro hokimiyatining vakolatlarini chegaralab qo'yishlari ham mumkin.

O'tgan yili federal immigratsiya hokimiyati nolegallarni ushlab va mamlakatdan chiqarib yuborishda rekord natijaga erishdi — 393.000! Qolaversa, shtatlar va shaharlar politsiya departamentlarining nolegallarni ovlash bo'yicha vakolatlari ham tobora kengaymoqda. Qo'lga tushgan va quvg'in qilinganlarning orasida, tabiiyki, talabalar ham bor. Bundan tashqari, respublikachilar talabalarni ayab o'tirish kerak emas, demoqdalar. Ularni yoshi ulg'aygan bebaxt o'rtoqlari qatori basharasini ochib tashlash va quvg'in qilish zarurligi haqida bong urmoqdalar.

Nolegal talabalarni deportatsiya qilish xavfi ularning yagona muammosi emas. Hozir ko'plab shtatlar "hujjatsiz kishilar"ga munosabat

siyosatini yanada qat'iyashtirmoqda. Ularning nafaqat ishga joylashishiga yoki haydovchilik guvohnomasi olishiniga, balki o'qishiga ham muayyan chegaralar qo'ymoqda.

Ma'lumki, hozir nolegal yoshlar davlat kollejlarda tahsil olishlari mumkin. Ammo qonunshunoslar Dream Astning qabul qilinishiga qat'iy qarshi chiqmoqdalar va buni haddidan oshgan liberalizmning bir ko'rinishi, deb baholamoqdalar.

Xususan, yuqorida tilga olganimiz Lamar Cmit Vakillar palatasi Yuridik qo'mitasining raisi. U Dream Astga qarshi muxolifatning yetakchisi hamdir. Ular yosh nolegallar davlat kollejlarda o'qiyotgan tub amerikaliklar va legal immigranlarga soya tashlaydilar, demoqdalar.

Eng yomoni, nolegal talabalarga dushmanlarcha munosabat boshqa ko'plab shtatlarda ham tobora chuqurlashmoqda. Masalan, Jorjiya va Virjiniya qonunshunoslari bu hujjatni ko'rib chiqmoqdalar va ular ham nolegal yigit-qizlarning davlat kollejlarga kirib o'qishlari yo'lga g'ov qo'yishlari mumkin. Shuningdek, Viskonsin, Arkanzas, Kanzas, Nebraska va Indianada ham bu qonun loyihasi muhokama etilmoqda. Ular ham "hujjatsiz" yohlarga aynan ushbu shtatlarda yashovchilarning kollejdagi o'qishlari uchun to'lanadigan to'lov miqdorini man qilish ehtimoli bor.

Faqat bir nechta shtatlarda, jumladan, Kolorado va Merilendda qonunchilar boshqa sohildan bormoqdalar. Ular qonun loyihasini ko'rib chiqib, "hujjatsiz" yoshlarga o'qishlari uchun mahalliy to'lovlarni to'lashga ruxsat bermoqdalar.

Lamar Smit va boshqa respublikachilar Yuridik qo'mitada nolegallarga legallik maqomini berishga urinuvchi har qanday qonun loyihasi g'ildiragiga tayoq qo'yishga tayyor ekanliklarini bildirmoqdalar. Ular bunday hujjatlar jinoyatchilar, mamlakatning immigratsiya qonunlarini buzuvchilar uchun amnistiyaday gapdir, demoqdalar.

Ammo Smitning nafaqat Demokratik partiyada, balki o'z qadrdon respublikachilari ichida ham muxoliflari bor. Yaqinda Janubiy Karolinalik respublikachilar — mashhur senator-demokrat Charlz Shumer va uning hamkasbi Linds Grem o'z hammaslamlari bilan kelishuv muloqotini boshlab yubordilar. Ular hozir Kongressdagi "ob-havo"ni o'rganmoqdalar, ya'ni Dream Astni qancha odam qo'llab-quvvatlaydi, kurashning ikkinchi raundini boshlasa bo'ladimi, yo'qmi?

Shu tufayli nolegal talabalarning kayfiyatlarini ko'pam yomon emas, negaki hali umid qilsa, kurashsa bo'ladi. Ular orqaga chekinishni o'ylaganlaricha yo'q! Demak, maqola boshida eslagan yurtdoshimiz Murod ham hali yaxshi kunlardan umidlansa bo'ladi. Zero, Dream Astning hayotiy ro'yobi nafaqat Murodning, balki yuzlab, minglab murodlarning orzusidir.

Biz ham isonamiz: murodlar bir kuni, albatta, murodiga etgusidir!

Alisher AYMATLI.

TURKIY TILIM SEN AZALDAN BUYUK TILDIRSAN

Turkiydagi «ber yaq» (berigi yoq, berigi tomon) birikmalaridan ruscha «бер» so'zi yasalgan.

Turkiydagi «bala igez» (egiz bola) birikmalaridan ruscha «близнец» so'zi yasalgan.

Turkiydagi «burd» (mo'ylov, murt) so'zidan ruscha «борода» so'zi yasalgan.

Turkiydagi «beləzek» (bilarzik, bilaguzuk) so'zidan ruscha «браслет» so'zi yasalgan.

Turkiydagi «ber atadan» (bir otadan) birikmalaridan ruscha «брат» so'zi yasalgan.

Turkiydagi «berek oek» (oyoqni biriktiruvchi) birikmalaridan ruscha «брюк» so'zi yasalgan.

Qadimgi turkiy tilda arava g'ildiragining tagligi ma'nosida ishlatilgan «turmaz» so'zi ayni paytda biz ham ishlatayotgan rus tilidagi «тормоз» so'zining kelib chiqishiga sabab bo'lgan.

Qadimgi turkiy tilda aralastirmoq, qoristirmoq ma'nolarini ifodalovchi «jo'g'urmaq» so'zidan olinib, suyuq qatiq ma'nosini anglatadigan «yo'g'urt» so'zi ingliz tili orqali boshqa tirlarga «yogurt» shaklida tarqalgan.

Qadimgi turkiylarda suv yoki suyuqlik to'ldirilib, ot va boshqa ulovlar egariga qo'shib bog'lanadigan charm idish «baqlaq» deyilgan. Hozirda biz uning o'rniga asli turkiydan o'zlashib, so'ng rus tili orqali qaytib kelgan «баклажка» so'zini ko'p bora ishlatamiz.

Qadimgi turkiylarning «tamg'achi» (muhr-

dor) kasbi nomidan ruscha «таможня» so'zi olingan.

Qadimgi turkiylarning katta harbiy bo'linmasi «bo'luk» deyilgan. Bu so'z turkiy tildan rus tiliga, rus tilidan yana o'zimizga qaytib, «полк» ko'rinishini oldi.

Qadimgi turkiydagi «bag'ash» («bog'langan») so'zidan ruscha «бараж» so'zi yasalgan.

Qadimgi turkiydagi «qora tosh» birikmasidan ruscha «карандаш» so'zi yasalgan.

Forsiycha «band» va turkiy «et» so'zlaridan, ya'ni, «band et» (qama) birikmasidan ruscha «бандит» so'zi yasalgan.

(Davomi bor.)

AIRPORT SERVICES IN NEW YORK



TOSHKENTGA AVIACHIPTALAR SOTAMIZ!

Aeroportda kutib olib, NYC Aeroportdan 300 milgacha masofa bo'lgan boshqa shtatlarga olib borib qo'yish yoki olib kelish xizmatini taklif etamiz. Bir Aeroportdan boshqa aeroportga, bir terminaldan boshqa terminalga kuzatib qo'yish va mahalliy reyslarga aviabilet sotib olishga ko'maklashamiz.

AIRLINE TICKETS TO TASHKENT, UZBEKISTAN!

We meet you/your guests at the JFK, LGA and Newark Airports and/or give ride to/from many States up to 300 ml in range from NYC Airports. Accompany you/your guests from Airport to Airport, from Terminal to Terminal and help to purchase an airline ticket to local flights.

Asqar
Leo Avia Express

718-354-5000, 718-570-7007
Email: flytotas@gmail.com

*Aziz farzandlarimiz Hasan va Husan!
19-mart tavallud ayyomingiz
bilan samimiy muborak etamiz.
Hayotda har tarafdama baxtli, taxtli,
omadli yigit bo'lib yuring.
Yo'lingizda ezgulik, ishlaringizga omad
yor bo'lsin! Tymoningiz doimo
mustahkam bo'lsin.
Ota-onangiz orzu qilgan farzand bo'lib
yetishing.
Oila a'zolaringizdan.*



Tea by Sea
Masal
Cafe & Lounge

www.masalcafe.com
718-891-7090
1901 Emmons Ave, Brooklyn, NY 11235

Uyqur Food 1141
KASHKAR
cafe
ЛАЗМАН • МАНТЫ • ШАШЛЫК • САМСА
True Delivery International Food 718-743-3832

KASHKAR CAFE

1141 Brighton Beach Ave, (between Brighton 14th st. and Brighton 15th st.) Brooklyn NY 11235 USA.
Phone: 1 718-743-3832
www.kashkarcafe.com Email: info@kashkarcafe.com

DOIMIY MUDDATGA OVIR OLIISH MUMKINMI?

Savol: OVIR vizamning muddati tugaganiga 3 yildan oshdi. AQSh fuqarosiga turmushga chiqqanman, hali AQSh fuqaroligiga o'tmadim. Keyingi yil O'zbekistonga borish niyatimiz bor. Kirishda OVIR so'ramasliklarini bilaman, lekin chiqishda yana bu vizani olgan bo'lishim shartmi? Har safar borganda yangi OVIR olmasdan, uni bir marta doimiy muddatga olish mumkinmi?

Javob: O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi to'g'risida"gi qonuni 6-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan erkak yoki ayolning chet el fuqarosi bilan yoxud fuqaroligi bo'lmagan shaxs bilan nikohdan o'tishi, shuningdek, bunday nikohning bekor qilinishi er yoki xotinining fuqaroligi o'zgarishiga sabab bo'lmaydi. Demak, AQSh fuqarosiga turmushga chiqqan bo'lsangiz ham (agar o'z xohishingiz bilan O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqishni so'rab murojaat qilmagan bo'lsangiz) siz O'zbekiston Respublikasi fuqarosi hisoblanasiz. Bundan kelib chiqadiki, sizning O'zbekiston Respublikasidan chet elga chiqishingiz hamda O'zbekistonga qaytib kirishingiz kabi masalalarda O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga qanday qoida qo'llanilsa, sizga nisbatan ham shunday qoidalar tatbiq etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining chet elga borishlari tartibi to'g'risida"gi 1995-yil 6-yanvardagi 8-sonli



qaroriga 1-ilovaning II bo'lim, 1-bandiga ko'ra, chet elga bormoqchi bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari belgilangan tartibda anketa-arizani to'ldirgan va O'zbekiston Respublikasi pasportini taqdim etgan holda yashash joylari bo'yicha ichki ishlar organlariga murojaat qiladilar. Ichki ishlar organlari fuqarolarning anketa-arizasini 15 kunlik muddatda ko'rib chiqadilar va uning pasportiga chet elga vaqtinchalik borish uchun ikki yil davomida amal qiladigan ruxsat berish yozuvi stikeri (OVIR) ni yopishtiradilar.

Siz birinchi marta AQShga kelishingiz oldidan yuqorida keltirilgan tartib bilan ikki yil muddat davomida chet elga chiqish uchun ruxsatnoma (OVIR) olgansiz. Ushbu ikki yillik muddat tugab siz O'zbekiston Respublikasiga qaytganingizdan so'ng yana O'zbekiston Respublikasidan chiqish

uchun ruxsatnoma (OVIR) olishingiz kerak bo'ladi. AQShda doimiy yashash ruxsatnomasiga ega bo'lsangiz O'zbekiston Respublikasining chet elga doimiy yashash uchun ketayotgan fuqarosi sifatida yuqorida keltirilgan ikki yillik chet elga chiqish uchun ruxsatnoma emas, balki chet elga chiqish uchun muddatsiz ruxsatnoma olish huquqiga egasiz. Buning uchun pasportingizni taqdim etgan holda yashash joyingiz bo'yicha (ya'ni pasportingiz bo'yicha O'zbekiston Respublikasidagi manzilingiz) ichki ishlar organiga murojaat qilasiz. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining yuqorida keltirilgan qarori 1-ilovasi, 2-bo'limi, 2-qismiga ko'ra, doimiy yashash uchun chet elga ketayotgan shaxslarga ichki ishlar organlari ularning pasportidagi vizalar uchun nazarda tutilgan betga doimiy yashash uchun chet elga borishga ruxsat berish yozuvi stikerini amal qilish muddatini ko'rsatmasdan yopishtiradilar. Doimiy yashash uchun chet elga ketayotgan shaxslar uchun hujjatlarni ko'rib chiqish muddati 30 sutkagacha uzaytirilishi mumkin.

Demak, siz O'zbekiston Respublikasiga borib, yana AQShga qaytishingiz uchun albatta OVIR olishingiz kerak, lekin siz ikki yillik muddatdagi OVIR uchun emas, balki doimiy yashash uchun chet elga ketayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi sifatida muddatsiz OVIR olish uchun murojaat qilishingiz kerak.

Dilorom ABDULLAYEVA tayyorladi.
huquqshunos@vatandosh.com

| | |
|--|---|
| | <p>TRI-STATE DELIVERY AVAILABLE UPON REQUEST! PLEASE CONTACT US FOR MORE DETAILS.</p> |
| | <p>EMAIL, FAX, OR PHONE-IN ORDERS TO PICK UP AT OUR NORTH BERGEN, NEW JERSEY CASH & CARRY LOCATION!</p> |
| | <p>BE SURE TO JOIN OUR MAILING LIST FOR WEEKLY SPECIALS AND UPDATES!</p> |
| | <p>SERVING THE TRI-STATE AREA FOR THE PAST 6 YEARS.</p> |
| | <p>VENDORS AND SUPPLIERS PLEASE SUBMIT YOUR OFFERS AND DEALS.</p> |
| | <p>QUICK, RELIABLE SERVICE TO BETTER SUITE YOUR NEEDS.</p> |
| | <p>THOUSANDS OF ITEMS IN STOCK!</p> |

KJR & Sons Inc

Address: 6900 Roustein Avenue UNIT # 6-7 North Bergen, New Jersey 07047
Phone: (201) 453-1220 (201) 430-8041
Fax: (201) 453-1223
Email: kjr@kjrsons.com
Web: www.kjrsons.com

KJR & SONS Inc. is a wholesale distributor of brand name health & beauty aids and general merchandise KJR & SONS serves wholesalers, grocery & c-stores, pharmacies and jobbers. KJR has been in business since 2005, providing quick, reliable service for the past 6 years.

TANIQLI O'ZBEK ADIBI SOBIR SAYXON 80 YOSHGA TO'LDI



Shu kunlarda o'zining 80 yillik tavallud to'yini nishonlayotgan vatandoshimiz, taniqli yozuvchi Sobir Sayxon – taqdir taqozosi bilan o'zga yurtlarga borib qolgan va o'sha yerda palak yozgan minglab vatandoshlarimizdan biri. Sobir Sayxon Farg'ona viloyatining Toshloq tumanidagi Varzak qishlog'ida 1931-yili tug'ilgan. Sobir Sayxonning otasi Xolmuhammadxo'ja Asomiddinxo'ja mingboshi o'g'li o'tgan asrning 20-yillarida qo'rboshi Shermuhammadbek rahbarligida milliy-ozodlik harakatida faol ishtirok etganlardan biri. U 1920-yili Afg'onistonning Kobul shahridagi maxsus harbiy maktabni bitirib, Turkiston milliy ozodlik harakatida faol ishtirok etgan. Onasi Bibi Ulug' Poshsho qizi o'qimishli, ziyoli otinoyi ayol bo'lgan. Buvasi Asomiddinxo'ja mingboshi (Eshon ota) o'z davrida Yozyovon mingboshisi bo'lgan. Milliy istiqlol harakati namoyandalari Shermuhammadbek va Madaminbeklarning qo'lga qurol tutqazib, ularni bolsheviklarga qarshi urushga da'vat qilgan.

30-yillarning boshlarida qishloq ahli boshiga tushgan ofat uning oilasini ham chetlab o'tmadi. Sho'ro hokimiyatining zug'umu zo'ravonligidan joni halqumiga kelgan boshqa turkistonliklar qatori, uning ota-onasi ham 1931-yili kindik qonlari to'kilgan Farg'onaning Varzak qishlog'ini bir umrga tashlab ketishga majbur bo'lishgan... Shu vaqtda Sobirjon hali chillasi chiqmagan 30 kunlik chaqaloq edi. Yarim kechasi solga o'tirib Amudaryoni kechib o'tishda, bir tomondan, orqadagi qizil askarlar, ikkinchi tomondan, oldindagi afg'on sarbozlar yolg'irdan o'q yomg'iridan qanchadan-qancha begunoh yurtdoshlari, qo'ni-qo'shnilar halok bo'lishgan. Ammo o'ttiz kunlik chaqaloqqa Ollahning rahmi kelib, u ota-onasi bilan birga sho'rolarning "qil ko'prigi"dan tirik o'tgan. Sobir afg'on tuprog'idagi xorlik va zorliklar ham omon chiqqan. Shundan so'ng yosh Sobirning hayoti sarson-sargardonlikda — Hindistonda, Pokistonda, bir muddat Iroqda kechdi.

Taqdir unga Turkiyaning toza havosi bilan nafas olib yashashni ham ravo ko'rgan ekan, 1952-yili boshqa turkistonlik vatandoshlar kabi ularning oilasi Turkiyaga ko'chib o'tadi. Sobir Sayxon Turkiyada, oldin Adana shahrida va 1964-yildan boshlab esa u Istanbulda istiqomat qilib kelmoqda. Yoshligidan adabiyotga havas qo'yan Sobir Sayxonning she'rlari, ilk hikoyalari, maqolalari 1953-yildan boshlab e'lon qilina boshlagan. Keyinchalik uning vatan ishq, fidoyilik va milliylik ruhi bilan sug'orilgan bir qator asarlari O'zbekiston va Turkiyada ko'plab chop etiladi. Sobir Sayxon butun hayoti davomida Vatanga sog'inchini bir daqiqaga bo'lsa-da yo'qotmadi. SSSR degan temir qo'rg'onning devorlari nuray boshlashi bilan u o'z qishlog'i

va hamqishloqlarini, osmonida istiqlol quyoshi porlagan o'zbek diyorini ko'rgani ona-Vatani sari yo'l oladi.

Sobir Sayxon O'zbekistonga ilk bor 1972-yili xorijdagi vatandoshlar bilan aloqa qiluvchi "Vatan" jamiyatining taklifi bilan tashrif buyurgan. Shundan beri har yili vatanga kelib ketadi. U O'zbekiston mustaqilligini katta xursandchilik bilan kutib oldi. Sobir Sayxonning O'zbekistonda 1992-yili "Tijorat va halol osh" ma'rifiy-tarbiyaviy risolasi, 1996-yili "Adashganlar" adabiy asari, "To'lg'anoy" va "Yemirilgan g'urur" hikoyalar to'plamlarini chop etilishi o'zbek kitobxonlari tomonidan yaxshi kutib olindi. Bundan tashqari 2006-yili "Vatan qidirgan yigit", 2009-yili "Bug'doy ekib, arpa o'rganlar" va 2010-yili esa "Egasini g'ajigan it" qissalari nashr etilgan. U kishining asarlari asosida "Vatan yagonadir", "Bir siqim tuproq", "Birovning qarindoshi" kabi televizion filmlar yaratildi. 1995-1996-yillar Sobir Sayxon stsenariysi asosida mamlakatimizda "Silsila" nomli tarixiy, badiiy film suratga olindi. Sobir Sayxon hurmatli o'zbek adibi Odil Yoqubovning «Ulug'bek xazinasi» asarini turk tiliga o'girib turkiyalik kitobxonlarga yetkazdi. Sobir aka "Sayxon" tahallusi bilan she'rlar yozadi. Ushbu she'rlar O'zbekistondagi «Vatan» jamiyati tomonidan tayyorlangan she'riy to'plamlarga kiritilgan.

Sobir Sayxon kamtarin inson, o'zini faqat havaskor shoir deb biladi. Lekin uning qissa va hikoyalari o'qigan kitobxon muallifda badiiy did va mahorat borligini sezmay iloji yo'q. «Xorijda ona yurtini sog'inib-qo'msab yashagan, muhtasham binolar peshtoqida hilpirab turgan 12 yulduzli bayroqni ko'rib, ko'z yoshlarini yashira olmagan bunday vatandoshlarimiz

oz emas. Ammo Sobir Sayxon ulardan qator fazilatlar bilan ajralib turadi. Uning asarlarini o'qigan kitobxon Sobir akaning taqdirini, uning qanday xatarli so'qmoqlaridan o'tib, Inson bo'lib qolganini, bag'rida nafaqat vatansevarlik, balki o'zbekona kenglik, tantilik, oliyjanoblik, mehroqibat singari ezgu xislatlar ham jo'shib turganini yaxshi biladi», - deb alohida ta'kidlaydi, o'z do'sti haqida taniqli o'zbek adibi, O'zbekiston Respublikasi fan arbobi, Beruniy nomidagi Davlat mukofoti lauriyati, filologiya fanlari doktori, professor Naim Karimov.

Sobir Sayxon boshidan ko'p yaxshi va yomon voqealarni o'tkazgani, undan ham ko'proq yaxshi va yomon kishilarni ko'rgani tufayli uning nasriy asarlaridan u yashagan, u orzu qilgan, unga qanot bag'ishlagan hayot nafasi ufurib turadi. "Sobir Sayxon nasriy asarlarining menga, ayniqsa, manzur bo'lgan jihatlardan biri o'zbekona rangin tilidir. Zamona zayli bilan 30-yillarda o'z vatanlarini tashlab, xorijiy mamlakatlarda yashashga majbur bo'lgan vatandoshlarimizning, xususan, Sobir Sayxonning qissa va hikoyalari tili va uslubida ohori to'kilmagan so'zlarni, lisoniy soddalik va tabiiylikni, o'zbekona uslub jilolarini ko'rib, quvonmay ilojingiz qancha..." - deya yozuvchini hurmat bilan tilga oladi professor Naim Karimov.

Sevimli adibimiz Sobir Sayxonga uzoq umr ko'rib, yanada badiiy baquvvat asarlar yozib barcha muxlislarini xushnud qilib yurishlarini tilab qolamiz.

Mavlon SHUKURZODA,
Washington shahri.
shukurzoda@vatandosh.com

Amerikada o'zbek to'ylarida xizmat qilamiz:
Video tasvirga olish va montaj
Fotosuratga olish
Tel: 202-716-3683
E-mail: photovideo@uzland.biz
Web: http://www.uzland.biz
UzLand Productions

Alaverdi
УЗБЕКСКАЯ КУХНЯ
Самые лучшие шашлыки в Филадельфии!
Лепешки, выпеченные в тандыре
Прекрасное место для проведения юбилеев, свадеб, дней рождения, бармицв, батмицв и др.
ВУОВ
СССР - СПИРТНОЙ С СОБОЙ РАЗРЕШАЕТСЯ
Владелец ресторана Амри, искусный повар, приглашает вас в свой ресторан
267-902-1285
1916 Welsh Road, Philadelphia, PA 19115
(Plaza Welsh & Old Bustleton)

AMERIKADA O'QISHNI ISTAYSIZMI?

Amerikada o'qishni istamaydigan odamni topish qiyin. AQShning nufuzli oliy o'quv yurtlarida ko'plab o'zbekistonlik vatandoshlarimiz tahsil olishadi. Ularning bu yerda o'qish imkoniyatiga qanday erishganlari haqida to'liq tushuncha hosil qilishimizdan oldin biroz lirik chekinish qilishimga ijozat bergaysiz.

O'zbekistonda litseyda o'qib yurgan kezarim matematika fanidan bir o'qituvchimiz bo'lardi. Juda qattiqqo'l, o'ziga to'q, litseyimizning eng obro'li o'qituvchilaridan edi. Farzandlarining barchasi oliy ma'lumotli, ayrimlari chet ellarda ham o'qib kelishgan edi. Ularning oilasiga havas qilardim.

Bir kuni shu domlam menga bir gap aytib qoldi: "O'qing, Behzod. Chet ellarga chiqib o'qing. Nima istasangiz, hamma imkoniyat bor, faqat qidirib topishingiz kerak, xolos. Sizing o'rningizda bo'lganimda, ehhe, men dunyo keazardim..."

Bu gaplar aytilgandan beri oradan 10 yildan ziyod vaqt o'tibdi. Domlamning nasihatlariga amal qilgan holda, jiddiy o'qishga va chet elga chiqib, dunyo ko'rishga harakat qildim. Bir talaba sifatida, o'tgan yillarimdan chiqargan tajribam asosida shunga amin bo'ldimki, domlam haq ekan. Qidirgan, imkonini topgan, albatta, maqsadiga erishar ekan...

AQShning eng boy odami Bil Geyts bilan sizning o'rtangizdagi asosiy farq nima, bilasizmi? Asosiy farq bu uning boshqalar erishmagan muvaffaqiyatlarga erishganida. Uni boy qilgan ham, dunyoga mashhur "Microsoft" komputer dasturlari kompaniyasining asoschisi qilgan ham mana shu muvaffaqiyat. U erishgan bu muvaffaqiyatning kaliti nimada? Siz u kabi bo'la olamizmi? Yo'g'e, deyishga shoshilmang. Albatta, bo'la olamiz. Undan zo'roq ham bo'lishimiz mumkin.

Bil Geyts ham siz u kabi odam naslidan, ikki oyoqli, og'iz-burun, ko'z-quloqqa ega bir banda. Tug'ilganda hech narsani bilmasdi, hatto boshini ham ko'tara olmaydigan zaif bir go'dak edi, xuddi siz go'dakligingizda bo'lganingiz kabi. Ammo o'qish va izlanish, qattiq mehnat uni bugungi muvaffaqiyatlar cho'qqisiga chiqardi...

Bir ustozimiz bizga shunday derdi: "Har bir sohaning eng kuchli, eng zo'r odamlari bor. Bir ish qilishga kirishdingmi, bir sohani kasb sifatida tanladingmi, men shu sohaning eng zo'ri bo'laman, deb niyat qil. Yaxshi mutaxassis bo'laman, deb emas, birinchi raqamli eng zo'r mutaxassis bo'laman, deb ayt va shu yo'lda bor kuchingni sarfla. Shu sohaning eng zo'ri bo'lish balki sening peshonangga bitilgandir, nega urinib ko'rmasan? Shunday niyat bilan harakat qilsang, eng zo'ri bo'lmasang ham, kamida eng zo'rlaridan bittasi bo'lasan".

O'zim bu hikmatli nasihatga to'la amal qila olmagan bo'lsam ham, ammo mendan maslahat so'rovchi do'stlaringizga, ukalarimga doim shu gapni aytaman. Zero, Bil Geyts muvaffaqiyatining asl siri shunda. Chunki insonni ruhlantiruvchi, olg'a intilishi uchun rag'batlantiruvchi bir maqsad, bir marra bo'lmasa, aslo oldinga siljish bo'lmaydi. Talaba bu izlanuvchi, o'rganuvchi degani. U izlanishdan, o'rganishdan to'xtamasligi, faqat oldinga intilishi kerak.

Yuqoridagi gaplar ishtiyoqingizni, shijoatingizni qaynatgan bo'lsa, demak, asosiy mavzuga o'tsak ham bo'ladi. Siz Amerikada o'qimoqchisiz, o'zingiz tanlagan sohaning yetuk mutaxassisi bo'lib, shu kasb bilan halol rizq topib oila tebratishni, xalqqa xizmat qilishni niyat qilgansiz. Tabriklayman, Amerikada o'qish imkoniyatining eng muhim, eng asosiy imtihonidan muvaffaqiyatli o'tibsiz. Chunki to'g'ri niyatga ega bo'lishning o'zi va bu niyatga erishish yo'lidagi qat'iy ahd muvaffaqiyatning asosiy shartidir. Sizdan endi biroz izlanish va qattiqroq mehnat qilish talab etiladi.

Dunyoning eng sifatli bilim beruvchi ta'lim dargohlari Amerikada joylashgan. Sifatli narsaga talab kuchli bo'ladi. Bu degani, Amerikada o'qishni istaganlar ko'p va shunga yarasha, qabul qilish shartlari qiyin va ilm olish narxлари ham qimmat bo'ladi.

Avvalo, siz o'zingiz tanlagan yo'nalish bo'yicha yetarli ma'lumot yig'ishingiz kerak. Shu soha bo'yicha o'qish taklif etuvchi qanday kollej yoki universitetlar bor, kirish uchun qanday hujjatlar talab etiladi kabi masalalarda to'liq axborotga ega bo'ling. Hozirgi kunda universitet veb-sahifalaridan bu boradagi barcha ma'lumotlarni osonlikcha topish mumkin.

Keyingi bosqichda shu hujjatlarni tayyorlashingiz kerak. Xabaringiz bor, chet ellik talabalaridan ingliz tilini bilish darajalarini tekshirish uchun maxsus TOEFL yoki IELTS testlari talab etiladi. Agar magistratura yoki aspiranturaga topshirayotgan bo'lsangiz, qo'shimcha, GRE yoki GMAT kabi maxsus imtihonlar bor. Shularni topshirishingiz kerak bo'ladi.

Mana shu jarayondagi yana bir muhim masala bu o'qishingiz xarajatlarini qoplash uchun grant qidirish. Men bilan sizga o'xshagan oddiy o'zbek bolasining Amerikaga kelib, bu qimmat shaharlarda na yashashga va na o'qishga qurbi yetadi. Ammo umidni uzmaslik kerak, chunki buning chorasi bor.

AQShda ta'lim olishning o'ziga xos afzalliklaridan biri ham shunda, moliyaviy ahvolingiz bu yerda yashash va o'qish xarajatlarini ko'tara olmasa, ta'lim grantlarini qo'lga kiritish orqali bu muammoni bartaraf etishingiz mumkin. Odatda, har bir universitetning o'zida talabalar uchun, xususan, xalqaro talabalar uchun maxsus grant



dasturlari bo'ladi. Bundan tashqari, maxsus chet elliklar uchun yoki maxsus ayrim davlatlar, masalan, o'zbekistonliklar uchun hamma xarajatlarni to'liq qoplovchi grant dasturlari mavjud. Masalan, Amerika hukumatining bu borada o'zbekistonliklar uchun 15 dan ortiq yo'nalish bo'yicha to'liq grant beruvchi maxsus o'quv dasturlari bor. Bu haqda AQShning O'zbekistondagi elchixonasi saytidan (<http://uzbekistan.usembassy.gov>) to'liq ma'lumot topishingiz mumkin. Ushbu dasturlar haqida kelgusi maqolalarimizda batafsilroq ma'lumot berish niyatimiz bor. Grant yutib olish uchun hujjatlarni qanday tayyorlash lozim yoki ushbu grantni yutishga sabab bo'ladigan zarur bilim va ko'nikmalarni qanday egallash va rivojlantirish kerak, bularning barchasi kelgusi maqolalarimizning asosiy mavzusi.

Demak, gazetamiz sahifalarini muntazam kuzatib boring. Biz bu mavzuga yana qaytamiz. Savollaringiz bo'lsa, ularni bizga elektron pochta manzilingiz orqali yo'llashingiz mumkin.

Behzod MAMADIYEV,
behzod@vatandosh.com

"LIVING WAY" SIZNI CHORLAYDI!



Xristofor Kolumb Mirzo Ulug'bekning yulduzlar xaritasi orqali Amerikani kashf etdi. Biz esa Amerikaga endi kelganlar uchun "Living Way"ga tashrif buyurishlarini taklif qilamiz.

"Living Way" bolalar va kattalar uchun ingliz tilini o'rganadigan bepul maktabdir. Bu maktab asosan Markaziy Osiyodan Amerikaga kelgan insonlar uchun maxsus ochilgandir.

Mashg'ulotlarni amerikalik o'qituvchilar olib borishadi. "Living Way" da olgan bilimlaringiz Sizni nafaqat Amerika hayotiga moslashtiradi, balki o'z turmush tarzishingizni to'la o'zgartirishga imkoniyat yaratadi. O'zingizga va yaqinlaringizga eng to'g'ri yo'lni ko'rsatadi!

Murojaat uchun manzil: 2487 Coney Island Avenue,
Brooklyn, NY 11223
Tel. 718-781-6030

VAMBERI OLIMMI, JOSUS?

RASHID AFANDI

Vengriyalik Armin Vamberining darvesh qiyofasida Rashid afandi, Rashid hoji nomlari bilan bizning yurtimiz bo'ylab qilgan safariga 125 yil to'ldi.

Mana, o'tgan 125 yildan beri mojaristonlik bu sayyohning nomi jahon xalqlari ensiklopediya, qomuslaridan tushmaydi, uning yozib qoldirgan kitoblari hanuz yevropaliklar tomonidan qiziqib o'qiladi, o'rganiladi. Uning o'zi haqida o'nlab kitoblar yozilgan, filmlar qo'yilgan. Buning boisi nimada? Armin Vamberi kim bo'lgan?

Armin Vamberi 1832-yilning 19-mart kuni Dunaya orollaridan birida joylashgan kichik venger shahri Duna Sherdaxelida yahudiy oilasida tug'ilgan. 12 yoshgacha qishloq maktabida o'qiydi, so'ng Avliyo Georgiy gimnaziyasiga kiradi. 16 yoshida u mojar, lotin tillaridan tashqari, fransuz, nemis, ingliz hamda skandinaviya tillarini yaxshi bilgan, rus va boshqa slavyan tillaridan xabari bo'lgan. Ota-onasi erta vafot etganligi sababli, u yoshligidan mehnatdan qochmadi.

Til o'rganishga qiziqish Vamberida erta boshlangan. G'arb va Sharq tillarini o'rganish uning uchun bir orzu bo'lgan. Vamberining ikkinchi yana bir orzusi bor edi — u venger tilining kelib chiqishini, uning Sharq tillari bilan aloqasini aniqlamoqchi edi.

O'sha vaqtlari va undan keyin ham, bir qancha olimlar venger (mojar) urug'i O'rta Osiyodan yoki Boshqird tekisligidan ko'chib kelgan degan taxminni olg'a surishgan. A. Vamberi yoshligidan bu jumboqqa javob axtarib, O'rta Osiyoni ko'rib qaytganidan so'ng, unga javob topgandek bo'ladi. U yozadi: Biz Osiyoda turg'un bo'lib qolib ketgan urug'larimizni qidiraymiz, degan fikr xatodir... Biz o'z tilimizning etimologik tuzilishini aniqlashga harakat qilamiz, aniq ma'lumot olish uchun qar-dosh shevalarga murojaat etamiz (O'rta Osiyo bo'ylab sayohat, SPb., 1865, 1-bet).

Ma'lumki, venger tili oltoy tillari oilasiga kiradi. A. Vamberining orzui venger tilini oltoy tillari oilasining fin-ugor guruhlarigami yoki turkiy tillar guruhiga kirishini aniqlash edi. Shu maqsadda, ma'lumotli bo'lganidan so'ng, u 1852-yili Osiyo mamlakatlari-dan eng yaqini Turkiyaga yo'l oladi. U o'sha yillari Konstantinopol deb nomlangan Istanbulga ko'chib o'tib, o'ziga to'q turk oilalarida g'arb tillari, asosan fransuz tilidan dars bera boshlaydi. Avval Posha Husayn Doim xonadonida, so'ngra do'sti va maslahatchisi Mulla Ahmad afandi ta'sirida deyarli usmonli turk qiyofasiga kiradi hamda Fuod posha idorasiga ishga o'tadi. «Bir necha yil turk xonadonlarida bo'lishim, islom maktablariga va kitob do'konlariga qatnab yurishim», deb eslaydi A. Vamberi, «meni tezda turkka, hatto afandiga aylantirib qo'ydi». Istanbulda A. Vamberi turk tili, eski o'zbek tilidan tashqari, arab, fors tillarini qunt bilan o'rganadi, islom dini qonun-qoidalarini bilan mukammal tanishadi va natijada, islom dinidan olgan bilim bir mullaning bilimidan ortiq bo'ladi. Bularning ustiga 1858-yili Nemischa-turkcha lug'at (taxminan 14 ming so'zli), 1860-yili esa Chig'atoycha (eski o'zbekcha) — nemischa lug'at (taxminan 40 ming so'zli) tuzib, Istanbuldagi nashriyotlarda chop etiradi.

A. Vamberining bu ishlari O'rta Osiyoga rejalashtirayotgan sayohatining boshlang'ich bosqichi edi.

Tillarni o'rganishdagi mening muvaffaqiyatlarim, deb xotirlaydi u, Sharq bo'ylab sayohatni davom ettirishim uchun meni ruhlantirdi. Men O'rta Osiyo bo'ylab sayohat qilishga bel bog'lar ekanman, afandi qiyofasini saqlab qolishni va Sharqqa

shu mamlakatlarning tabiiy fuqarosi sifatida kirib borishni to'g'ri deb hisobladim.

O'z rejasini amalga oshirish maqsadida A. Vamberi 1863-yilning boshida Tehronga keladi. Eron poytaxtidagi Turkiya elchixonasi boshlig'i uni yaxshi qabul qiladi va O'rta Osiyoga darvesh qiyofasida amalga oshiriladigan sayohat rejalarini ishlab chiqa boshlaydilar. Bu reja bo'yicha, A. Vamberi Makkadan kelayotgan hojilar karvoni bilan O'rta Osiyoga kirib borishi lozim edi. Armin Vamberining ism-sharifi o'zgartiriladi, endi u Rashid afandi nomi bilan yashashga majbur edi. Keyinchalik karvondagilar uni Rashid hoji deb ham ataydilar.

27-mart kuni Turkiyaning Tehrondagi elchisi Rashid afandining O'rta Osiyo bo'ylab safari oldidan katta ziyofat beradi...

1863-yilning 28-mart kuni Makkadan qaytayotganlar bilan birga kechqurun Rashid afandi darvesh qiyofasida hali bizga noma'lum ming xil xayollar, ming xil rejalar bilan yurtimiz tomon kela boshlaydi.

VAMBERI O'ZBEKLAR YURTIDA

1863-yil 29-may kuni A. Vamberi qo'shilib olgan karvon Xiva xonligi tuprog'iga qadam qo'yadi. 30-may kuni Xiva yaqinidagi qishloqda dam olishadi. A. Vamberi: 30-may kuni biz o'zbek qishlog'iga kirib keldik. Bu qishloq aholisi men ko'rgan birinchi o'zbeklar edi; «ular juda ham ajoyib inson ekanlar», — deb yozadi daftariga (63-bet).


Xivani ko'rgan Vamberi hayratda qoladi. «Men avval Xivaning shunchalik chiroyliligini sahro bilan qiyosdan bo'lsa kerak, deb o'ylar edim. Yo'q, yo'q! Xivaning atrofidagi baland teraklar, soya tashlab turgan kichik hovlilar (asl nusxada ham xavli so'zini ishlatadi — X. I.), ko'm-ko'k yaylovlar va to'kin-sochin dalalar hozir ham, — Yevropaning g'oyat go'zal yerlarini ko'rganimdan keyin ham, — men uchun eng chiroyli bo'lib tuyulyapti» (64-bet).

Amudaryoning suvi haqida biz ko'p rivoyat va haqiqatlarni eshitganmiz. A. Vamberining yozganlari haqiqiy dalillarga qo'shilgan bir dalildir: «Dunyoda bunga o'xshash boshqa daryo yo'q, muborak Nil daryosi ham bunday emas deyishardi. Men bo'lsam, bu daryo suvining totilligi suvsiz cho'ldan chiqib, uning qirg'oqlarida orom olish natijasida bo'rttirib aytilgan gap bo'lsa kerak, deb o'ylardim. Biroq keyinchalik buning xatoligiga ishon-dim. Aminmanki, men bilgan daryolar ichida suvi eng shirini, bu — Amudaryo suvidir» (78-bet), deb guvohlik beradi mojar sayyohi.

A. Vamberining yozishicha, «Xivaning tuprog'i boy, u bug'doy, sholi, ipak, paxta qog'oz, sifatli qizil bo'yoq olinadigan ro'yon nomli ildizi bilan shuhrat qozongan. Xivaning mevalari shunday yaxshiki, unga teng keladigan mevalarni Eron va Turkiyadagina emas, balki Yevropaning o'zidan ham topib bo'lmaydi. Ayniqsa, Hazorasp olmalari, Xivaning nok va anorlari tengi yo'q, ajabtovur qovunlari juda ham yaxshi. Uning qovunlari Pekingacha ma'lum. Aytishlaricha, Osmon saltanatining sultoni vaqti-vaqti bilan Urganch qovunlarini xushlab qolar ekan. Bu qovunlar Rossiyada ham yuqori bahoda sotiladi. Bir arava qishki qovunga bir arava shakar to'lashadi» (170-bet).

Yana boshqa bir kitob — O'rta Osiyo ocherklarida A. Vamberi Xiva qovunlari xususida to'xtalib, ularni yuqori baholaydi: «Xiva qovunlariga o'xshash qovunlarni siz Osiyodagina emas, balki butun yer yuzida topolmaysiz. Ularning shirinligi to'g'risida yevropalik hatto tasavvur ham qilolmaydi. Ular shu darajada shirin va xushbo'yki, og'izda eriydi; agar ular non bilan yeyilsa, bizga tabiat in'om etgan eng

Herman Vamberi darvesh libosida



yaxshi taom shu bo'ladi» (226-bet). A. Vamberi 10 ta tepishar, 5 ta qishki qovunning navlarini sanab, ularni ta'riflaydi.

A. Vamberi o'zbek paxtasiga alohida e'tibor bergan. Vamberining 125 yil avval chiqargan xulosasiga ko'ra, O'rta Osiyo paxtasining kelajagi katta. «Turkiston paxtasi hind, eron va misr paxtasidan yaxshi, ko'plaring fikricha, u mashhur amerika paxtasidan qolishmaydi» (229-bet). A. Vamberini tashvishga solgan masala — O'rta Osiyo paxtasini faqat birgina Rossiya yildan-yilga ko'proq xarid qilishi. Vamberi bu masalada ham o'ta sinchkovlik bilan ish tutgan. U 1840—1860-yillar davomida Buxoro amirligi va Xiva xonligidan Rossiya sotib olgan paxtaning miqdori va narxi bilan qiziqqan va buning jadvalini tuzgan. A. Vamberi jadvalidan ko'rinadiki, o'zbek paxtasining Rossiyaga chiqishi 1840—1850-yillarga nisbatan 1853—1860-yillari ikki marta oshgan. Birgina Buxoro amirligidan Rossiya 1840—1850-yillari 2.065.679 funt sterlinglik paxta sotib olgan bo'lsa, 1853—1860-yillari 4.237.772 funt sterlinglik paxta olgan (231-bet).

Turkiston o'lkasining qazilma boyliklari to'g'risida ham A. Vamberi ancha keng va haqiqatga yaqin ma'lumotlar keltirgan. «Men shunday xulosaga keldimki», deb yozadi u, «Turkiston boyligi kam o'lkalardan emas. Uni (Turkistonni — X. I.) qum gardishli olmos, deb bejiz aytishmaydi. Kelajakda O'rta Osiyo haqiqatan ham muhim ahamiyat kasb etadi va Sharq mamlakatlari o'rtasida eng ko'zga ko'rinarli o'rinni egallaydi» (238-bet).

Yangi Urganchda yetishtiriladigan paxta, A. Vamberining yozishicha, eng sifatli, Hazorasp pillasidan olinadigan ipak butun Xiva xonligida eng qimmatli hisoblanadi, Gurlanda eng yaxshi sholi o'stiriladi. Buxoro va Qo'qonda ham shunday.

A. Vamberi Turkistonning o'simlik dunyosi ta'rifiga katta e'tibor bergan. Har bir o'simlikning navlarini, qanchadan hosil berishini ko'rsatib o'tadi va Yevropa bilan qiyoslaydi. Buxoro bug'doyi eng sifatli sanaladi, u uzun va ingichka qizil rangli don beradi. Bu bug'doy unidan Buxoro shahrida shuhrat qozongan non yopishadi. Bu bug'doy hamma yerda shirmoy nomi bilan shuhrat qozongan. Guruch bu yerlarda juda ham mo'l; jo'xori uchala xonlikda ham ko'p ekiladi. Moyli ekinlardan munjut bu yerda yaxshi o'sadi va ko'p moy beradi. Zig'irdan olinadigan moy ovqatga ishlatiladi. Paxtaning chigitidan olinadigan yog' ovqatga ishlatilmaydi, deb ta'kidlaydi A. Vamberi (223-bet).

Bir narsani oldindan aytib qo'yishimizga to'g'ri keladi: shahar-qishloqlarimiz, xalqimiz, bizgacha barcha o'simlik va hayvonot dunyosi, yurtimizning geografik va strategik mavqei haqida A. Vamberi

o'z asarlarida deyarli haqiqatni yozishga harakat qiladi. Uning vazifasi O'rta Osiyoning geografik, siyosiy, ijtimoiy mavqeini to'g'ri baholashdan iborat edi. Uni O'rta Osiyoga yuborganlarga shu kerak edi. U o'z vazifasini a'lo darajada bajaradi. Biz uchun A. Vamberi yozib qoldirgan xalqimizning o'tmish hayotiga oid har bir tarixiy dalil qimmatlidir.

Buxoro do'konlarida A. Vamberi choyni 16 xilini ko'rgan va ularning nomini o'z yon daftariga tushirgan. Ularning anrimlari mana bular: qirqma, axbor, oq quyruq, qora choy, sepet choy, ishboglu, gulbo'y, poshun, mushuk ko'z, lonka (94-bet).

A. Vamberining o'lchovicha, o'sha vaqtlari Samarqand sahni jihatidan Tehronga teng bo'lgan, lekin uylar uzoqroq joylashgan, katta binolar esa yaxshi yerlarga qurilgan (112-bet).

A. Vamberi Qarshi shahrida faqat uch kun turgan bo'lsa-da, u yerdan ham ko'p dalillar to'plagan. Qarshi qadimgi Naxshabdir, deb yozadi u, o'zining mavqei va savdo ahamiyati jihatidan Buxoro amirligida ikkinchi shahar sanaladi. Agar siyosiy to's-to'polon monelik qilmaganda edi Qarshi, Buxoro, Qobul va Hindiston bilan bo'ladigan savdosiqtida muhim ahamiyat kasb etardi. Vamberining sanog'iga ko'ra, o'sha vaqtda Qarshining aholisi 25 ming, asosan o'zbeklar bo'lgan va ular amir askarlarining asosini tashkil etgan (114-bet).

VAMBERINING YURTIMIZDAN CHIQUIB KETISHI

Qarshi A. Vamberi bo'lgan oxirgi bizning shahrimiz edi. Bu shaharda uch kun turgach, u Amudaryoni kechib o'tib, Hirotda yo'l oladi.

1863-yil 15-noyabr kuni Hirotdan 2000 kishilik karvon bilan Mashhadga qarab jo'naydi. O'n ikki kun yo'l yurib, 27-noyabr kuni Mashhadga yetib keladi va bu Eron shahrida birinchi qilgan ishi — Mashhad shahrining gubernatori bo'lib turgan ingliz polkovnigi Dolmaj qabulida bo'ladi. Mana shu kundan boshlab Rashid afandi o'zining darvesh niqobini olib tashlab, yana Armin Vamberi qiyo-fasiga kiradi. Ingliz polkovnigi Dolmaj uni 1863-yil 25-dekabr kunigacha mehmon qiladi. Vamberi-ning o'zi iqror bo'lishicha, yangi yil — mavludni mehmondo'st polkovnik bilan o'tkazib, 1863-yil 26-dekabr kuni Tehronga qarab yuradi. Bu safar u karvonsiz, o'zbek yo'ldoshi mulla Ishaq bilan otda yo'lga chiqadi. A. Vamberidan u to'plagan O'rta Osiyoga oid dastlabki ma'lumotlar bilan tanishgan ingliz polkovnigi Vamberi va mulla Ishaqni ikki yaxshi ot va yetarli yo'l anjomlari va xarajat bilan ta'minlaydi.

1864-yil 20-yanvar kuni A. Vamberi va mulla Ishaq Tehronga yetib kelishadi: «Ko'rinishim kul-gili va ayanchli bo'lishiga qaramay, men Turkiya elchixonasiga shoshildim. Ingliz elchixonasi esa, meni xushmuomalalik va samimiyat bilan kutib oldi», deb xotirlaydi A. Vamberi (146—147-betlar). Chindan ham, Buyuk Britaniyaning Erondagi elchisi Alison, uning ikki sekretari Tomson va Votson Vamberiga iltifot ko'rsatishadi va Angliyaga yetib borishi bilan O'rta Osiyo xotiralarini bosib chiqarishda yordam berajaklarini bildirishadi.

Bu yerda bir narsaga e'tibor berish kerak: hech bir elchixonadagi uchrashuvda Vamberining yo'ldoshi mulla Ishaq ishtirok etmaydi. A. Vamberi-ni elchilar, ingliz-harbiylari qabul qilib, unga iltifot ko'rsatishayotganda, mulla Ishaq Makkaga olib bormoqchi bo'lgan o'z hamrohini karvonsaroylarda kutib o'tirar edi.

Tehronda A. Vamberi Eronning yosh shohi Nazriddin ham qabul qiladi. «Yosh Nazriddinshoh meni bog'da qabul qildi», — deb eslaydi Vamberi. — «U mendan (O'rta Osiyolik) hamkasblari, xon-

liklar haqida so'radi. Men ularning siyosiy ahvoli tangligini aytdim. Yosh shoh yonida o'tirgan vaziri-ga o'n besh ming askar bilan biz ularning hammasini yengardik», dedi (147-bet).

A. Vamberi Tehronda ikki oy turgach, 1864-yil mart oyida Istanbulga qarab yo'lga tushadi. Istanbulda hamasi bo'lib uch soat (!) bo'ladi, biroq shu vaqt ichida ham diplomat baron Fon-Prokash-Osten bilan uchrashadi va undan o'zi to'plagan ma'lumotlarni qanday ishlab chiqish haqida maslahat oladi. Istanbuldan so'ng o'z vatani Vengriya poytaxtiga o'tadi. O'sha vaqtlari Vengriyaning poytaxti bo'lgan Peshtda mulla Ishaqni do'stlari qo'lga topshirib, yakka o'zi Londonga — uni kutib turishgan shaharga yo'l oladi. A. Vamberi Londonga 1864-yil 9-iyul kuni kirib keladi. «Men vatanimda ham ko'p turolmadim, chunki Angliya qirollik geografiya jamiyatiga o'z hisobotimni olib borishga shoshilayotgan edim», deya o'zini oqlashga urinadi A. Vamberi (148-bet).

Vamberi «O'rta Osiyoga qilgan safarining asl mohiyati to'g'risida safarimning asl siri, mohiyati faqat ikki kishiga ayon edi», deb yozadi, lekin kimlar bu safarining siridan voqif bo'lganligi haqida og'iz ochmaydi.

VAMBERINING HISOBOTI

Tarixdan ma'lumki, XIX yuz yillikning o'rtalari inglizlar Hindistonda o'z mavqelarini mustahkamlab olgan, Afg'oniston va O'rta Osiyoga intilayotgan bir davr edi. Bu yillari rus armiyasi ham Orenburgga o'rtnashib olib, kelgusi yurishlarini Turkistonga qaratishni rejalashtirayotgan edi. Inglizlarga O'rta Osiyoning siyosiy ahvoli, geografik mavqei, aholisi, armiyasi haqida aniq ma'lumotlar havo bilan suvdek zarur edi. Ular O'rta Osiyoga yuborgan bir necha sayyohlar maqsadga erisha olmadi: qatl etildi, cho'llarda suvsizlikdan nobud bo'ldi, chegaralarda ushlab qolindi. Armin Vamberi inglizlarning so'nggi umidi edi. U bu umidni to'la oqladi. Vamberi aqlli edi, ilmi edi, ayyor edi. U har qanday qiyinchilikka jismonan chidadi, chunki yoshligi qiyinchilikda o'tgan edi; u o'z safari davomida berilgan har qanday so'roqlarga aniq, to'g'ri javob berdi, uning ilm doirasi keng edi.

A. Vamberi o'z hisobotiga kirishni Londonda 1864-yil 28-sentabrda yozib tugallagan.

A. Vamberi Xiva, Qo'qon xonliklari va Buxoro amirligiga oid to'la ma'lumotlar to'play oldi. Armin Vamberi o'z hisobotida siyosiy jabhada bir necha yil keyin kechishi mumkin bo'lgan voqealarni oldindan bashorat qila oldi. Mana ayrim dalillar: I) A. Vamberi Xiva xonligiga qarashli 32 shahar va joyning Amudaryodan qancha mil uzoqqa joylashganligini aniqlab chiqqan. II) Uning aniqlashicha, Buxoro amirligining armiyasi 40 ming o'tliqdan iborat, kerak bo'lganda 60 ming o'tliqqacha oshishi mumkin (169—186-betlar). III) Rossiyaning O'rta Osiyo bilan aloqa qiladigan yo'llari: 1) Xiva — Astraxan — Orenburg; 2) Buxoro — Orenburg; 3) Toshkent — Orenburg va Qiziljar (Petropavlovsk); 4) Namangan va Oqsuv — Po'lat (Semipalatinsk) (201-bet).

A. Vamberi yana O'rta Osiyo xonliklari o'rtasidagi yo'llarni, ularning necha farsaxdan iborat ekanligini ham hisobotiga kiritgan.

Vamberi Angliyani O'rta Osiyoni Rossiyaga berib qo'ymaslikka chaqirgan, rus armiyasi O'rta Osiyoga yaqinlashib kelayotganligidan ogohlantirgan. «Ayrim odamlar Londonda O'rta Osiyo bizga kerak emas, kerak bo'lsa ruslar olaversin, deb yurishibdi», — yozadi hisobotida A. Vamberi. — Angliyaning hind yerlariga Rossiyaning yaqinlashib kelishiga befarq qarashi mening aqlimga sig'maydi.

Rossiyaning O'rta Osiyodagi xatti-harakatining muvaffaqiyat qozonishiga shubha qilmasa ham bo'ladi. Lekin Rossiya faqat Buxoro bilan chegaralanadimi? Va u o'z intilishlarini Amudaryo bilan chegaralaydimi? Men Rossiya Turkistonni zabt etganidan so'ng, bir kun kelib, Afg'oniston yoki Shimoliy Hindistonga qarab yurishdan o'zini tiya olishini tasdiqlaydigan siyosatdon bilan uchrashishni istar edim. U hisobotini shu so'zlar bilan tugallaydi: «Mening kamtarona fikrim shu. Britaniya sheri rus ayig'i bilan bu mamlakatlarda dushmanlik munosabatida bo'ladimi yoki aka-ukalarcha o'z o'ljalarini teng bo'lib oladilarmi — bu shunday masalaki, o'zini filologik tadqiqotlarga bag'ishlagan bir darvesh sifatida men bunga yaqinroq yondosha olmayman» (221-bet). Tarix shunga aniqlik kiritdiki, bu masalaga eng yaqin yondoshganlardan biri mana shu darveshning o'zi bo'lib chiqdi. 1864-yili 10-sentabr kuni chiqqan sonida «London Deyli telegraf» gazetasining Peterburgdagi muxbiri ruslar Toshkentni ishg'ol etganligi haqida xabar beradi. A. Vamberi o'sha kungi hisobotida buning to'g'riligiga ishonib bo'lmaydi, biroq ruslar u yerda harakat qilayotganliklariga shubha yo'q, deb yozadi (221-bet). Vamberi bu masalada ham haq bo'lib chiqadi. Haqiqatan ham, general Chernyaev 1864-yil 1-oktabr kuni o'z askarlari bilan shaharga yaqinlashadi va 2-oktabr kuni Qo'qon yo'lga chiqib, shu tomondan shaharga hujum uyushtiradi. Lekin bu hujum natijasida, uning qo'mondonligidagi askarlar talafot ko'radi, podpolkovnik Obux o'ladi, podpolkovnik Lerxe yarador bo'ladi. Bu muvaffaqiyatsiz hujum tufayli, general Chernyaev askarlaridan 18 kishi o'ladi (2 tasi ofitser) va 60 kishi yarador bo'ladi (2 tasi ofitser). Bu otryad 4-oktabr kuni Toshkentdan uzoqlashib, 7-oktabr kuni Chimkentga qaytib boradi (bu haqda qarang: A. I. Maksheev. Istoricheskiy obzor Turkestana i nastupatel'nogo dvijeniya v nego russkix. S. Peterburg. Voennaya Tipografiya v zdanii Glavnogo shtaba, 199, str. 227).

Toshkentni ruslar 1865-yil 14-iyundan 15-iyungacha o'tar kechasi qattiq hujum bilan zabt etishadi (o'sha kitob, 223-bet).

Bu hisobotidan so'ng, A. Vamberi nimaga erishdi, degan savol tug'iladi. Rus sovet yozuvchisi N. Tixonovning ancha yuzaki bitilgan «Vamberi qissasi»da (Toshkent, 1963) bu savolga Vamberi tilidan shunday javob beriladi: «Tortgan mashaqqatlarim, oqargan sochlarim uchun hech kim bir paqir to'lamadi» (shu kitob, 54-bet). Bu, albatta, haqiqatdan yiroq fikr. Keyingi yillari topilgan hujjatlar shuni ko'rsatadiki, alohida xizmatlari evaziga Armin Vamberi, amerikalik olim H. B. Paksoyning aniqlashicha, Britaniya Tashqi ishlar idorasi tomonidan muntazam oylik, keyinchalik pensiya bilan ta'minlanib turgan (bu haqda qarang: X. V. Paksoy. O'rta Osiyoning yangi dostonlari. «Sentral eyshan survey» jurnali 6-tom, 1-son, 1987, 91-bet). Agar A. Vamberi 1913-yili vafot etganligini eslasak, 49 yil davomida Britaniya mojar sayyohiga pul to'lab turgan bo'lib chiqadi. Inglizlar bekorga pul to'lmasligi barchaga ayon!

Londonda bir yil turib, A. Vamberi 1864-yilning oxirida O'rta Osiyo bo'ylab sayohat kitobini ingliz tilida chiqaradi va Yevropaga mashhur bo'lib ketadi. Bir yildan so'ng — 1865-yili Parij orqali o'z vataniga qaytadi va Budapesht universitetida sharh tillaridan professor lavozimida ishlay boshlaydi.

A. Vamberi 1913-yil 15-sentabr kuni Budapeshtda 81 yoshida vafot etgan.

Xayrulla ISMATULLAYEV.
«O'zbekiston adabiyoti va san'ati»
gazetasi, 1988-yil.

«Siz sog'ingan maqolalar» rukni orqali yillarcha oldin chop etilgan, sizning xotirangizda qolgan va yana o'qishni xohlaydigan maqolalardan havola etamiz. Siz kimning qaysi maqolasini sog'indingiz? Bu haqda info@vatandosh.com ga yozib yuboring.



ABDULHAMID CHO'LPON

(1898 - 1938)

Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon 1898 yil Andijon shahrining Qatorterak mahallasida tug'ilgan. Cho'lpon 16 yoshidan boshlab ijod qila boshladi, ilk asari «Qurboni jaholat» 1914-yilda yozilgan. Uning ilk she'ri «Turkistonlik qardoshlarimg'a» (1914)dir. 30-yillarda matbuotda Cho'lponga qarshi maqolalar tinimsiz chiqa boshlagach, 1932-yilda Moskvaga ko'chib ketib, jon saqlaydi.

Cho'lpon 1924-1926-yillarda Moskvada tashkil etilgan o'zbek dramstudiyasida tarjimon, adabiy emakdosh va dramaturg sifatida faoliyat ko'rsatadi, 1935-yilning boshlarida esa Toshkentga qaytib, Hamza nomli teatrdagi (shu teatrnin tashkilotchilaridan biri Cho'lpon edi) adabiy emakdosh bo'lib xizmat qiladi. 1937-yilda Cho'lpon qamoqqa olinadi, 1938-yil 4-oktabrda Toshkentda otib tashlanadi. Dahshatli shundaki, Cho'lponni o'limga hukm qilingan sud qarori 1938-yilning 5-oktabrida chiqarilgan edi.

Asarlari: «Uyg'onish» (1923), «Buloqlar» (1922), «Tong sirlari» (1926), «Soz» (1923), «Jo'r» (so'nggi to'plami, nashr etilmay qolgan) *kabi she'riy to'plamlari*, «Qurboni jaholat», «Do'xtur Muhammadiyov», «Oydin kechalarda» «Qor qo'ynida lola», «Novvoy qiz», «Oq podshoning in'omi», «Gavharoy» *kabi hikoyalar*, «Mushtumzo'r», «O'rtoq Qarshiboev», «Hujum» (V. Yan bilan hamkorlikda), «Yorqinoy» dramalari, «Kecha va kunduz» romani va birqancha maqolalar.

Quyida Cho'lpon ijodidan o'zbek va ingliz tillarida taqdim etamiz.



Great Uzbek poet Abdulhamid Sulaymon-ughli Chulpon was born in 1898 in Qatorterak neighborhood in Andijan City. He wrote his first work "Qurboni Jaholat" (The Victim of Ignorance) in 1914, at the age of 16. His first poem entitled "To My Turkestani Fellows" also was written in 1914. In the thirtieth, many articles criticizing Chulpon began to appear in local media and in 1932 he was obliged to leave for Moscow.

In 1924-1926, Chulpon worked as a translator, literary adviser and playwright at the Uzbek Drama Studio in Moscow. In 1935, he returned to Tashkent and worked at Khamza Theatre (he was one of the founders of the theatre). Chulpon was arrested in 1937. On October 4, 1938, he was shot in Tashkent. Surprisingly, the judicial decision on death penalty was dated October 5, 1938.

Books by Chulpon: *poetry collections* - Renaissance (1923), Springs (1922), Secrets Of Dawn (1926), Tune (1923), *Accompaniment; short stories, novels, plays and articles* – The Victim of Ignorance, Doctor Muhammadiyov, At Moonlit Nights, A Tulip in Snow, A Baker Girl, The Present of the White King, Gavharoy, Violent, Comrade Qarshiboev, Attack, Yorqinoy, Night And Day, etc.

We are presenting some poems by Chulpon in Uzbek and English languages.

GO'ZAL

Qorong'u kechada ko'kka ko'z tikib,
Eng yorug' yulduzdan seni so'raymen.
Ul yulduz uyalib, boshini bukib,
Aytadir: "Men uni tushda ko'ramen,
Tushimda ko'ramen – shunchalar go'zal,
Bizdan-da go'zaldir, oydan-da go'zal!"

Ko'zimni olamen oy chiqqan yoqq'a,
Boshlaymen oydan-da seni so'rmoqq'a.
Ul-da aytadir: "Bir qizil yanoqq'a
Uchradim tushimda, ko'milgan oqq'a.
Oqq'a ko'milganda shunchalar go'zal,
Mendan-da go'zaldir, kundan-da go'zal!"

Erta tong shamoli sochlarin yoyib,
Yonimdan o'tganda so'rab ko'ramen.
Aytadir: "Bir ko'rib, yo'limdan ozib,
Tog' va toshlar ichra istab yuramen!
Bir ko'rdim men uni – shunchalar go'zal,
Oydan-da go'zaldir, kundan-da go'zal!"

Ul ketkach, kun chiqar yorug'lik sochib,
Undan-da so'raymen sening to'g'ringda,
Ul-da uyatidan bekinib, qochib,
Aytadir: "Bir ko'rdim tushdamas, o'ngda,
Men o'ngda ko'rganda shunchalar go'zal,
Oydan-da go'zaldir, kundan-da go'zal!"

Men yo'qsil ne bo'lib uni suyibmen?!
Uning-chun yonibmen, yonib kuyibmen.
Boshimni zo'r ishga berib qo'yibmen.
Men suyib... men suyib kimni suyibmen?
"Men suygan suyukli shunchalar go'zal,
Oydan-da go'zaldir, kundan-da go'zal!"

Toshkent, 1919 yil

BEAUTY

I look at sky at night in darks,
And ask you from the brightest star.
That star inclining head remarks:
"I always dream of her afar.
In my dream she pretty thus -
Finer than the Moon and us!"

I sight straightly to moonrise,
From the moon to ask I start.
It says: "I met in dream - so nice,
With a beauty that in white.
Wrapping up with white so pretty,
More the sun and me, such beauty!"

When by me - with hanged hairs,
I always question – the morning breeze,
It tells: "I saw her and lost stairs,
Still looking for in stone, trees.
Once I've seen, she's so attractive,
More than moon and sun, much active!"

When she leaves, the sun comes shiny,
Asking for you I entreat.
It runs away to hide, so shyly,
Says: "In actual I've met."
In my witness she is charming,
More than moon and sun, such darling.

Poor man, how fell in love, me,
For her sake I was inflamed.
I gave my head to a deal so lovely,
And for what so long I've aimed?
Thus she's bonny that I fondle,
More than moon and sun, best angel!!!

KO'NGIL

Ko'ngil, sen munchalar nega
Kishanlar birla do'stlashding?
Na faryoding, na doding bor,
Nechun sen muncha sustlashding?

Xaqorat dilni og'ritmas,
Tubanlik mangu ketmasmi?
Kishanlar parchalanmasmi?
Qilichlar endi sinmasmi?

Tiriksen, o'lmagansen,
Sen-da odam, sen-da insonsen.
Kishan kiyma, bo'yin egma,
Ki sen ham hur tug'ilg'onsen!
Toshkent, 1922

SOUL

What is this, my heart, why such –
With the fetters made you friends?
Neither wail you have nor much
Of the cry, and slowly sense.

Abuse will never hurt a soul,
Will baseness forever leave?
When will broken be a hobble,
Swords are cut, but who'll believe?

You're alive, not passed away,
You're a man, act humanly,
Refuse the fetters, don't obey,
In fact, you also were born free!

KISHAN

Kishan, gavdamdagi izlar bukun ham bitkani yo'qdir!
Temir barmoqlaringning dog'i butkul ketkani yo'qdir!

Na mudhish, na sovuq manxus, qizg'anmas quchog'ing bor!
Bashar tarixining har sahfasida qonli dog'ing bor!

Yumilmas ko'zlarining har biri bir elni qahr aylar,
Faqat bir borlig'ingdir, kim butun borliqni zahr aylar!

Gulf birlan sening erkingda ko'p yillar qolib ketdim...
Faqat har tebranishdan qutulishlikni umid etdim.

Kishan, gavdamdagi dog'ing hanuz ham bitkani yo'qdir,
Faqat butkul qutulmoqqa umidim endi ortiqdir!..

Toshkent, 1922

HOBBLE (CHAIN)

Fetter, ulcers in my body 've not been treated yet this moment,
Spots of iron fingers wholly leaving not still bear torment.

You have such embrace, so awful, cold like and not so greedy,
Every leaf of people's story may appear blemish bloody.

Each of eyes non-closed and fury makes anger to one nation,
From one fastener only ever the entire world gets mental tension.

Many years with padlock always wanting freedom stayed, I banded
To get rid of you in every chance of stagger I intended.

Fetter, stain that in my body has not taken yet its treatment,
But reliance is so longer to be in freedom, to be a great man!

Translated by Azam Abidov

HALOLLIK

Xalqimizda bironing haqi, unga ko'z olaytirmaslikka oid juda ko'p rivoyatlar, hikoyatlar, naql va matallar bor. Darhaqiqat, harom luqma bizday pokiza, andishali va or-nomusli millatga hech qachon botmagan. Shu tufayli bobolarimiz va momolarimiz o'zganing nasibasi, rizqi va qolaversa, bironing luqmasidan hazar qilishgan. Hatto bunday ishni qilishni farzandlariga ham ravo ko'rishmagan. Emishki, bironing haqi qoni buzarmish...

Abdurahmon o'tinchi qariganda farzand ko'rdi. Cholu kampir keksayganda topgan yolg'iz farzandini yeru ko'kka ishonmas, o'zgacha mehrardoq bilan tarbiyalardi. Chol har kuni tog'dan o'tin tashir, uni shaharda pullab, ro'zg'or tebratardi. Farzandli bo'lgach, Abdurahmon ota ikki hissa g'ayrat bilan ishlay boshladi. Toki, farzandi zoriqmasin, bironing haqiga ko'z olaytirmasin, halol luqma taniga singsin. Qolaversa, hademay o'g'lining qo'lini halolash kerak, buning uchun esa elning oldidan o'tish lozim bo'ladi. Shu tufayli u ro'zg'ordan orttirganini sandiqqa tashlab qo'ya boshladi. Xullas, to'y ham o'tdi, yosh go'dak ham yigit bo'ldi. Abdurahmon ota kunlardan bir kun o'g'lini chaqirib:

— Endi sen ham katta yigit bo'lding, uyga qamalib o'tiraverma, mana, uch-to'rt tangani olib, shaharga tush, ob-havoni, narx-navoni o'rgan, odamlarning ichiga kir, elga qo'shil, — debdi.

Farzand ham otasining gapini ikki qilmabdi, darrov safar anjomini olib, shaharga ravona bo'libdi.

Ammo oradan to'rt-besh soat o'tar-o'tmas begona bir kishi farzandining qulog'idan tortib ke-

layotganmish. Chol bu xabarni eshitib, kovushini oyog'iga ilar-ilmas, ko'chaga yugurib chiqibdi.

— O', chol, bu sizning o'g'lingizmi? — o'dag'aylabdi haligi kishi. — Qanaqa farzand tarbiyaladingiz o'zi, bironing haqi haromligini uqtirmabmidingiz bu o'g'ri bachchaga. Men bir meshkobchiman (Ilgarigi zamonlarda suv muzday turishi uchun echkning qornidan mesh tikib, guzarma-guzar sotib yurishgan — A.A). Shu kasbning ortidan ro'zg'or tebrataman. Bu bachchag'ar esa ortimdan kelib, bigiz bilan meshimni teshib suv ichayapti. Suvku hech narsa emas, meshimga ichim achiyapti.

Chol uyatdan boshini ko'tarolmay, zimdan o'g'liga qarabdi. Otasiga ko'zi tushgan o'g'il boshini quyi egibdi. "Demak, hammasi rost, — o'ylabdi chol. — Nega bunday bo'ldi, men qayerda xato qildim?". Chol birdan sergaklanib, uyga yugurib kirib ketibdi va bir xaltachada tanga olib chiqibdi. Meshkobchining rozi-rizoligini olib, haqini beribdi. Va yana qaytib uyga kirib ketibdi. O'g'liga hech narsa demabdi ham. U shu kirgan-cha uch kun uydan chiqmabdi, uch kun o'ylabdi: qayerda xato qildim?

Ammo o'ylab o'yiga yetolmabdi. Shunda savol nazari bilan kampiriga termulibdi. Uch kundirki, kampirining ham rangi zahil, kayfiyati tushkun edi. Oxiri u chidayolmabdi.

— Meni kechiring chol, — debdi u yig'lab. — Ayb o'g'limizda emas, ayb menda. Mana meni o'ldiring, mengina gumrohni o'ldiring. Shu go'dakkinaga boshim qorong'iligida bozorga tushdim. Peshtaxtalarda olma-anorlar biram yaltillab turibdiki, chidayolmadim. Bitta anorni



O'ZBEKNING FE'LI

ko'rgan kishi bo'lib, to'g'nog'ichimni tiqdim va o'g'irilib, uni yaladim, anorni esa joyiga qo'yib qo'ydim.

Qissadan hissa shuki, anorga qadalgan to'g'nog'ich 18 yildan so'ng bigiz bo'lib meshni teshgan ekan. Bironing haqi qirq yildan keyin ham teshib chiqadi, degan naql ana shunday voqealardan keyin aytilgan bo'lsa kerak, ehtimol.

Nafsi ham, lafzi ham halol, rizqi butun, nasibasi ulug' xalqimizdan ayirmasin!

Alisher AYMATLI.
aymatli@vatandosh.com

ISHLAB TOPGANNING OSHI – LAZZATLI

1. Halol ish — lazzatli yemish.
2. Halol ishla, halol tishla.
3. Halol mehnat yerda qolmas.
4. Halol mehnat — mo'l daromad.
5. Halol molning qulfi o'zida bo'lar.
6. Ko'ngil tortgan osh — halol.
7. Manglay tering bilan topilgan mol — taningga halol.
8. Oshing halol bo'lsa, ko'chada ich.
9. Halol pishib chiqar, harom teshib chiqar.
10. Beli og'rimaganning non yeyishini ko'r.
11. Bersang — yeydi, ursang — o'ladi.
12. Bir dehqon omoch bilan, Yettovlon cho'mich bilan.
13. Bironing qo'li bilan tikan yulish oson.
14. Dili pokning ishi — pok.
15. Dili pokning yo'li — pok.
16. Yerga boqqan ish qilmas, Ish qilsa ham, tinch qilmas.
17. Ishlab yegan zog'orang Tanangga yog'dek yoqar.
18. Ishlab topganning oshi — lazzatli.
19. Ishlagan er, tishlab yer.
20. Ishlamay yegan og'rimay o'lar.
21. Kambag'alning puli — peshona teri.
22. Kim ishlaydi, kim tishlaydi.
23. Kishining zari kishini buzar, Zarni ko'rgan zanjirini uzar.
24. Oqar suvning haromi yo'q.
25. Og'zingdan chiqqan tupruk, Yerga tushsa, makruh.
26. Og'iz yesa, ko'z uyalar.
27. Pora do'zax eshigini ochar, O'zini bilgan undan qochar.
28. Poraxo'rning tavbasidan qo'rq, Mug'ombirning — yig'isidan.
29. Tekin go'shtning suyagi burun yirtar.
30. Tekin yegan — ko'zga tikan.
31. Tekin yeguncha, ekib ye.
32. Tekin tomoqning ta'mi boshqa, Yeganlarning boshi qashqa.
33. Tekin tomoqning tikanagi tiqilar.
34. Tekin topgan mol yomon, Oxiri qo'ymas omon.
35. Tekin to'n qimmatga tushar.
36. Tekindan tomoq bo'lsa, Qirq kun yotmoq kerak.
37. Tekinning minnati ko'p, Mehnatning — ziynati.
38. Tekinxo'r boyimaydi, Boyisa ham yuqmaydi.
39. Tekinxo'r qopib yeydi, Mehnatkash topib yeydi.
40. Tekinxo'rga teng kelma, qopadi, O'z aybini tekin pulga yopadi.
41. Tikanning zahri yomon, Tekinxo'rning qahri yomon.
42. Tomog'ining yo'li toza, Ishi bo'lar pokiza.
43. Xalq molini yegan halqumidan inilar.
44. Ekkanda yo'q, Tikkanda yo'q, Xirmonda hozir.
45. Eldan osh yesang, elga osh ber.
46. Yulg'ich yulib to'yamaydi, Qirg'ich qirib qo'yamaydi.
47. Mehnatingni halol qilsang, Huzurini ko'rasan.
48. Harom ish tez qaritar.
49. Harom haromni chaqirar.
50. Haromdan kelgan haromga ketar.
51. Haromdan ming tanga, Haloldan bir tanga.

HIKMATNOMA

DONISHQISHLOQ LATIFALARI

Erkin VOHIDOV,
O'zbekiston Xalq
shoiri

(Davomi. Boshi avvalgi sonda.)

MATMUSANING CHARXPALAGI

Polvon edi Matmusa,
To'rt fil kuchi jam edi.
Qishloqda eng zo'r, ammo
Aqli bir oz kam edi.

Matmusani shundan hech
Ko'zga ilmas edilar.
Qo'rqasalar ham undan, hech —
Hurmat qilmas edilar.

Bir kun dedi Matmusa,
Shunday kuchga egamen.
Shuhratim yo'q el aro,
Beobro'man nega men?

Ot ko'tardim tish bilan,
Kuldi faqat odamlar.
Arzimagan ish bilan
Topdi hurmat odamlar.

Men ham aqlim ko'rsatib
Hayron qilay hammani.
Dono bo'lib bir o'zim,
Nodon qilay hammani.

Bo'z ariqda ko'p zamon
Bor eski bir charxpalak.
Ko'ribdiki, bir tomon
Aylanar u g'ildirak.

Balki ming yil narida
Aylangandir shu yo'sin.
Matmusaning davrida
Yangilik bir ish bo'lsin.

Turdi bir oz o'y surib,
Yurdi shaxdam ilgari.
Charxpalakni sug'urib
Shartta qo'ydi teskari.

Bu ijoddan el darak
Topdi sahar pallada.
Jadal chopar charxpalak,
Lekin suv yo'q dalada.

O'ylar ahli ulamo
Tuzatmoqning yo'lini.
Mag'rur turar Matmusa
Belga qo'yib qo'lini.

Kim charxpalak kosasin
Yalpoq qilish kerak, der,
Kim kosaga osma sim
Qopqoq qilish kerak, der.

Der idroki eng yuksak
Qashib turib kallani:

— Daryoni sal ko'tarsak.
Sal tushirsak dalani...

— Yo'q, ish bitmas «sal»
bilan!
Qishlog'imiz erlari
Charxpalakni gal bilan
Aylantirsin teskari.

— Yo'q, kuchimiz o'jizroq,
Qiyalmasin el joni.
Teskariga oqizmoq
To'g'ri bo'lar daryoni.

Emish, hamon qilar bahs
O'sha qishloq erlari.
Charxpalak-chi, suv bermas,
Aylanarmish teskari.

MATMUSANING TANDIRI

Matmusaga bir kuni
Xotini: «Hoy, er, — dedi.
Hammada bor, menga ham
Tandir qurib ber», dedi.

Pishiq edi Matmusa,
Boshga qo'yib qo'lini,
O'ylab topdi eng arzon
Tandir qurmoq yo'lini.

Dehqonchilik — somon, jun,
Loy qorishni biladi.
O'zi tayyor qolip-ku,
Nega pul sarf qiladi?

Loyni qordi, ishlatib —
Zang ketmonu paqirni.
So'ng oftobga cho'k tushib,
Bolalarni chaqirdi.

Qiyqirishib bolalar
Atrofida chopdilar.
Qorni bo'yni aralash
Loyshuvoqni yopdilar.

Bundoq tandir bo'lmagan,
Yo'qdir hech bir kitobda.
Tandirini Matmusa
Quritadi oftobda.

Qotgan sari tanda loy,
Har bir mo'yi jimirlar.
Chig'anoq qurt singari
Faqat boshi qimirlar.

Ko'p qiynaldi Matmusa,
Mard emasmi — chidadi.
Tandir tayyor, endi mard
Undan qandoq chiqadi?

Pilla yorar kapalak,
Qil sug'rilar xamirdan.
Lek Matmusa chiqolmas
O'zi qurgan tandirdan.

Yetar yetti qo'shniga
Uning nola-xonishi.
Maslahatga yig'ilar
Qishloq ahli donishi.

Kim der: E voh, bechora,
Kim der: Ko'ring taqdirni.
Bahs boshlandi — masala:
Butun olmoq tandirni.

Oxir dedi bosh hakam,
Chimirgancha qoshini:
— Bir chora bor: arralang
Matmusaning boshini.

Mayli, dedi Matmusa,
Rozi bo'lmay netayin,
Bilmadinglar qadrimni,
Hammang jinni, betayin.

Kessangizlar boshimni,
Men niyatga yetarman.
Boshim olib bu yerdan
Biron yoqqa ketarman.

(Davomi kelgusi sonda.)

TOYOTA



High volume Toyota dealer, located in Brooklyn, is currently seeking sales people to head up their Pre-Owned department. Applicants should be energetic, passionate, self-disciplined, a self-starter and punctual. Bilingual is a plus. If you are an organized and an excellent communicator and want to join our winning team, please contact Mohammad Ali, 917-939-4464 or email your resume to mohammad.ali@bayridgetoyota.com

Applicants MUST NOT have prior experience as a pre-owned sales person.

We offer:

- * Sizable commissions
- * Bonus Programs
- * Sales Incentives and contests
- * Paid Vacations
- * 401K
- * Benefits
- * Job specific training and advancement opportunities
- * Support of a financially stable company .

Assalom Navruz 2011!!!

20 марта, 12:00 дня
“HAPPY NAVRUZ 2011”

Theatre “Millenium”
Restaurant “Oceana”

Концерт состоится с участием звезд узбекской эстрады!

При поддержке Генерального Консульства Республики Узбекистан в Нью-Йорке!

В этот день вы не только можете услышать восточные песни, а так же увидеть национальные танцы и насладиться непревзойденными блюдами Средней Азии:

Плов (ош), Норин, Манты, и конечно же

Праздничный Сумалык и Халим от профессиональных поваров узбекской национальной кухни!

БИЛЕТЫ НА КОНЦЕРТ И ФУРШЕТ - \$40



ПРОДЮСЕР ПРОЕКТА - ФИРУЗА МУРАДОВА

1029 Brighton Beach Avenue, 917-517-1042 Guli
Brooklyn, NY 11235 347-662-9814 Sanobar
718-593-9442 Dilbar (Queens) 347-355-3070 Vohid

DEHQONNING HIMMATI

(O'zbek xalq ertagi)

O'tgan zamonda bir dehqon bo'lgan ekan. Uning kambag'al oshnasi bor ekan. Kunlardan bir kuni u dehqondan bir tanob yerini sotishni iltimos qilibdi. Dehqon yerning bir chekkasini kambag'al oshnasiga sotibdi.

Yerni olgan odam bir qalin og'aynisidan qo'sh ho'kiz olib kelib, yer haydayotganida, omochning tishi bir nimaga tegibdi. Dehqon parvo qilmay hayday beribdi. Qaytib o'sha yerga kelganida omochning tishi yana haligi narsaga urilibdi. Kambag'al dehqon: «Ilgari bu yerda daraxt bo'lgan, uning to'nkasi qolib ketgan shekilli», — deb o'ylabdi.

U ketmon olib kelib, omoch tishiga qadalgan narsani kovlay boshlabdi. Nihoyat, u yerdan xumcha chiqibdi. Uni ochib qarasa, ichi to'la tilla emish. Dehqon yerning qolgan qismini ham haydab, urug' sepibdi. So'ng ho'kizlarni egasiga topshiribdi. Xumchadagi tillani ko'tarib, to'g'ri yer sotgan dehqon oshnasining uyiga boribdi. U oshnasiga:

— Sizdan olgan yerimni haydayotgan edim, mana shu xumchani topib oldim, ichidan tilla chiqdi. Uni o'zingizga olib keldim, — debdi.

Dehqon kambag'alga: — Men sizga yerni sotganman. Demak, u yerda nimaiki bo'lsa, sizniki bo'ladi. Men yer tagida nima borligini bilmaganman. Sizga Xudo beribdi. Bola-chaqangiz bilan maza qilib yashang, — deb xumchani olmabdi.

Kambag'al dehqon esa: «Bu boshqa kishining noni. Uni olsam, o'g'ri, jinoyatchi bo'lib qolaman», — deb o'ylab, xumchani yana boy dehqonga uzatibdi. Ikkalasi hech kelisha olmabdi.

Nihoyat, namozi asr o'qilayotganda masjidga boradigan, u yerdagi odamlardan so'rab, bu ishni hal qiladigan bo'lishibdi...

Masjiddagilar: «Qishloqdagi yetim-yesir va beva-bechoralarga bo'lib beringlar», — deb maslahat berishibdi.

Bunga dehqon ham, kambag'al ham rozi bo'libdi.

Shunday qilib, ular tillani qishloqdagi beva-bechoralarga, kambag'al, yetim-yesirlarga tarqatishibdi.

Kambag'al dehqon esa o'z mehnati bilan halol kun ko'rib, murod-u maqsadiga yetibdi.

1. Boqi qoqini Soqiga sotdimi, Soqi qoqini Boqiga sotdimi?

2. Tilim-tilim tilla qovunning To'rt tilimi tilimni tildi

3. Tovuq sovuqda sovqotadimi? Sovuqda tovuq sovqotadimi?

4. Oydinga oynadan oy mo'ralaydi. Keyin oydinga oyisi mo'ralaydi.

5. Qishda kishmish pishmash, Pishsa kishmish qishmash.

TEZ AYTISHLAR

6. Temur bilan Yo'lchi - temir yo'lchi, Temir yo'lchilarga aytib ko'r-chil!

7. Tushlikda teshik tishim tushmay, Kentik tishim tushibdi.

8. Darsda Nasim rasm soldi, Nasim rasimga razm soldi.

9. Ergash Erkinga ergashdimi, Erkin Ergashga ergashdimi?

10. Salim sumkasiga patirni soldi, Salima sumkasidan atirni oldi.

Aziz bolajonlar! O'zingizni sinab ko'ring-chi, nafas olmasdan bitta topishmoqni necha marta ayta oldingiz?

HADIS YOD OLAMIZ

ENG YAXSHI ISH

Payg'ambarimiz Muhammad (sollallohu alayhi vasallam - payg'ambarimizning nomlari eslanganda shunday deyiladi. Ma'nosi: U kishiga Allohning salovoti va salomi bo'lsin!)dan:

— Islomda qaysi ish eng yaxshi sanaladi? — deb so'rashibdi.

— Ochlarga taom, tanish-notanishlarga salom, — deb javob beribdilar Payg'ambarimiz (s.a.v.).

ENG YOMON ISH

— Dunyoda eng yomon hamda qutulib ketishning iloji yo'q ish nima? — deb so'rashibdi.

— Nohaq qon to'kilishi, — deb javob beribdilar Payg'ambarimiz (s.a.v.).

MA'QUL ISH

— Odamlar bir-biri bilan aytishib, san-manga borib qolsa nima bo'ladi? — deb so'rashibdi.

— Musulmonlar bir-birlari bilan uch kundan ortiq arazlab, gina saqlab, gaplashmay yurishi mumkin emas.

Shunday paytda ularning qaysi biri avval salomlashgan bo'lsa, o'shaning ishi ma'qulroq sanaladi, — deb javob beribdilar Payg'ambarimiz. (Ushbu hadislarini bobomiz al-Buxoriy rivoyat qilganlar.)



© D.Tojialiyev

CHUMOLI VA TIPRATIKAN

(Masal)

Tipratikan shudgor yuqorisidagi uzumzordan bir bosh uzumni o'g'irlab, qo'rqib-pisib iniga jo'nabdi. U bolalariga uzumni berib, urug'ini yutib yubormaslik kerakligini aytibdi.

Tipratikanning bolalari uzumni yeb, urug'ini yerga tashlashibdi. Buni uzoqdan ko'rib turgan Chumoli sekin o'rmalab kelibdi-da, uzum urug'ini olib ketishga ruxsat so'rabdi.

— Olib ketaver, bizga kerak emas, — debdi Tipratikan. Chumoli uzum urug'ini iniga olib ketayotganda Tipratikan va uning bolalari:

— O'zi kichkina-yu, katta narsani olib ketmoqchi bo'lib urinishini ko'ringlar-a, obbo badnafs-e! — deyishibdi Chumoli ustidan kulishib.

Ularning bu so'zlarini eshitgan Chumoli orqasiga qarab:

— Men buni sizlarga o'xshab o'g'irlab olib ketayotganim yo'q. Kuchim yetganicha sekin tortib ketyapman. O'zlaringdan so'rab, halollik bilan oldim. Halollik shunaqa, kuchga kuch qo'shadi, — debdi.

Halol boylik qilar sheryurak,
O'g'irlik mol aylar jonsarak.

QIZIQARLI TOPISHMOQLAR

1. Nima hamma tilda ham gapiradi?
2. Nimaning besh barmog'i boru lekin birorta ham tirnog'i yo'q?
3. Yumuq ko'z bilan nimani ko'rish mumkin?
4. Ko'prik ustida ketayotgan odam oyog'ining tagida nima bor?
5. Qaysi joyda daryolar suvsiz, shaharlar uysiz bo'ladi?
6. Qaysi joyda osmon pastda bo'ladi?
7. Qaysi so'roqqa hech qachon «ha» deb to'g'ri javob berish mumkin emas?
8. Kecha «ertaga», ertaga «kecha» bo'ladigan kun qaysi?
9. Hayvonlardan birining nomini ikki tomondan o'qilsa ham o'zgarmaydi. Bu qaysi hayvon?
10. Sovuqda bir xil kiyingan kishi va bola turibdi, bularning qaysi biri tezroq sovuq yeydi?

Hurmatli bolajonlar! Ushbu topishmoqlarning javobini o'zingiz topishga harakat qiling. Eng to'g'ri javobni bolajon@vatandosh.com manziliga yuborgan bolajonga tahririyatimizning maxsus sovg'asi bor.

AFANDI LATIFALARI



DUNYO NECHA CHAQIRIM?

Nasriddin Xo'jadan so'radilar:
— Xo'jam! Shu, dunyo necha chaqirim kelarkin?

Shu asno yonlaridan tobut ko'tarib o'tdilar. Nasriddin Xo'ja tobut tomonga ishorat qildi:

— Ana undan so'ranglar, o'lchash ishini bitirib qaytyapti!..

IKKI ESHAKNING YUKI

Podshoh, vazir va Nasriddin Afandi ovga chiqishdi. Yo'lda

Podshoh ustidagi chakmonini yechib, Afandiga berdi. Buni ko'rgan vazir ham chakmonini yechib, Afandiga uzatdi. Podshoh Afandiga tegajog'lik qilib:

- Afandi, ustingizdagi bir eshakning yuki bo'ldimi? - dedi.

Afandi darhol:

- Yo'q, shohim, ko'rib turibdilar, ikki eshakning yuki! - deb javob berdi.

KECHIRASIZ

Podshoh kechasi yo'lda ketayotgan edi, Afandiga duch kelib qoldi. Uni masxaralamoqchi bo'lib:

- Iye, Afandi, sizmisiz? Qorong'ida men sizni itmikan debman! - dedi.

Afandi podshohga ta'zim qilgan holda javob berdi:

- Kechirasiz, shohim, siz ekansiz-u, qorong'ida men sizni bilmay, odammikin debman!

MENGA ISHONASANMI YO ESHAGINGAMI?

Bir kuni Afandining yoniga kelib eshagini so'rashibdi. Xo'ja eshagi uyda emasligini aytishi bilan, eshagi xangrab qolibdi.

- Xo'jam oppoq soch-soqolingiz

bilan uyalmaysizmi yolg'on gapirishga? Eshak hovlingizda ekan-ku.

Afandi darhol javob qaytaribdi:

- Oppoq soch-soqolim bilan mening gapimga ihsanmay, eshakning gapiga ishonasanmi? - debdi.

AFANDI VA BEK

Afandi yo'lda ketayotgan edi. Bir sipohiy kelib, undan so'radi:

- Qayerga ketyapsiz?

- Shaharga.

- Ilgari ham shaharda bo'lganmisiz?

- Ko'p marta bo'lganman.

- Qalay, bizning shahar sizga yoqdimi?

- Yo'q, ma'qul bo'lmadi. Qarovsiz, iflos, qimmatchilik...

- Odamlari qalay?

- Shaharning boylari qo'pol, firibgar, ochko'z ekan.

- Shaharning begi to'g'risida nimalar bildingiz?

- Shahari shu bo'lsa, uning begi nima bo'lar edi! Mol egasiga o'xshamasam, harom o'ladi. Bekni ham o'ta ketgan zolim, mayishatparast odam deydim.

Sipohiyning quti o'chdi, mo'ylovlarini burab, ko'zlarini chaqchaytirdi va dag'dag'a bilan dedi:

- Men bu shaharning begiman!

Afandi darrov so'rashgani qo' cho'zib:

- Salomatmilar? Yaxshiyam shaharning begi to'g'risidagi gaplarga ishonmaganim, - dedi.

Personal and Business Taxes

Fast Professional Services
Maximum Refund / Electronic Filing

Phone: (718) 332-4448
837 Avenue Z, Brooklyn, NY 11235


DIGITAL WORLD
www.dworldshop.com

LAPTOP **NETBOOK**

MP3&MP4 **PHOTO CAMERA**

Cep telefonlarining kilit kirma (unlocked), ve cep telefonlarining tamir islemleri,
Telefonlarining Turkiye ayarlarini ve Turkce menu yuklemeleri,
Bilgisayar tamiri, sistem yukleme, virus temizleme ve diger islemler yapilir.

246 5th Avenue Suit #600 (28th street) New York, NY 10001
(212) 481 32 86
Facebook Sayfamizdan Bizi Ekleyen Herkeze Ozel Indirim
bestwholesaler@msn.com



3144 Atlantic Ave Brooklyn NY 11208

Tel.: 7182352652

www.homefurnitureny.com

Mobilia Furniture and Carpet with its convenient location in Brooklyn, New York is a furniture shoppers dream with over 150,000 square feet of furniture to choose from. It suits the needs of even the pickiest shopper. We carry almost every furniture brand name and other unique exclusive imports such as Form Italia Gucci, Benetti's Italia and Arredo Classic. Our wide range of selection includes antique, traditional to modern and even custom made furniture. We are open 7 days a week and we welcome you to visit our showroom.

Our talented and educated staff and designers are ready to answer any of your questions and serve you with all your furniture needs. We take pride in serving our customers and giving them the best value and service. We are open 7 days a week and we look forward to meeting and assisting you to create a beautiful home online or in person at our showroom.



Present this coupon and get extra

10% discount!!!